

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: Zamonaviy fors she‘riyatida shoiralarning tutgan o‘rni va
Tohira Safforzoda she‘riyati**

Filologiya va tillarni o‘qitish – 5120100 (fors tili va adabiyoti) ta‘lim yo‘nalishi

BAJARDI: Fors filologiyasi

yo‘nalishi bitiruvchisi

Qodirova Dilfuza_____

ILMIY RAHBAR: katta o‘qituvchi

Mamataxunova M.U. _____

Ilmiy maslahatchi:

f.f.d.dotsent Muhibova U .U. _____

TOSHKENT – 2018

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

Sharq filologiyasi fakulteti dekani
f.f.d., dots. Omonov Q. _____
“ ____ ” _____ 2018 yil

Xorijiy Sharq mamlakatlar adabiyoti
kafedrasi mudiri f.f.d. Muhitdinova
D.Z. _____
“ ____ ” _____ 2018 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....

1-bob. “She’r-e no‘v” yo‘nalishida shoiralarning tutgan o‘rni va Tohira Safforzoda she’riyati

- 1.1. Zamonaviy Eron she’riyatida “she’r-e no‘v” yo‘nalishi
- 1.2. Zamonaviy fors she’riyatida shoiralarning tutgan o‘rni va Tohira Safforzoda ijodi

2-bob. Tohira Safforzoda she’riyati mavzular ko‘lami va ramziy ma’no talqini

- 2.1. Tohira Safforzoda she’riyatida mavzular ko‘lami va “Suvli mashina” she’ri tahlili
- 2.2. Shoira she’rlarida ramziy obrazlarning talqin etilishi

XULOSA.....

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

KIRISH

Yurt kelajagi yosh avlod qo‘lida. Demak ertaning egalari qay darajada bilimli, zukko va tadbirkor bo‘lsa, vatanning ertasi ham shu darajada porloq bo‘ladi. Buni chuqur anglagan davlatimizning rahbari ta’limga, yoshlar kamolotiga bu qadar jon kuydirishi bejiz emas. Zero, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek “Yuksak marralarni ko‘zlagan har qanday millat, xalq uchun ta’limni rivojlantirish hayot va mamot masalasi bo‘lib kelgan”¹.

Bugungi kunda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda har tomonlama komil insonni tarbiyalash, unda milliy o‘zlikni shakllantirish o‘zga xalqlarning ma’naviyati va ma’daniyatini o‘rgatilishi asosida yuz bermoqda. Millatning urf-odati, ma’naviy qadryatlari bilan bir qatorda bu jarayonda adabiyotning o‘rni beqiyosdir.

Adabiyot chegara bilmaydi. U xox o‘zbek, xox jahon adabiyoti bo‘lsin inson uchun xizmat qiladi va hayotini aks ettiradi. Zamon o‘zgarsa-da, millatning tanazzuli ham, iqboli ham avvalo, adabiyotda o‘z aksini topadi. Shunday ekan, adabiyotni o‘rganish jarayonida o‘sha millat ruhiyati, uning tadrijiy taraqqiyoti kashf eta boriladi. Shu boisdan ham adabiyotni o‘rganishning ahamiyati beqiyos. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, faqat o‘zbek adabiyotinigina emas, balki boshqa xalqlar adabiyotini o‘rganish ham katta ahamiyatga ega. Xususan, Eron adabiyotini o‘rganish eron xalqi mentalitetini bilishda qo‘l keladi. Eron o‘zining adabiyot sohasida, dunyo miqyosida tutgan o‘rni bilan ajralib turadi. Eron adabiyotini o‘rganish bu sehrli diyor tilsimlarini ochuvchi bir kalitgina bo‘lib qolmay, eron millatiga hurmat ifodasi hamdir. Zero, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek “Adabiyot so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib kelgan”².

¹ Islom Karimov. “Tinchlik va Xavfsizligimiz o‘z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq”. –T., 2004. -B.284.

² Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. -T., 2008. -B.137.

Mavzuning dolzarbligi. Yurtboshimizning xorijiy davlatlar bilan adabiy aloqalarni mustahkamlash haqidagi o‘rinli fikr-mulohazalari butun jamoatchilik, jumladan, biz sharqshunoslarning ham zimmasiga ma’sulyatli vazifalarni yuklaydi. Zeroki, badiiy adabiyot borliqni badiiy bilish orqali bizning olam, odam va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi. Badiiy adabiyot ayni paytda dunyoni o‘zgartirish quroli hamdir. U o‘quvchining hissiyoti, onggi-shuuriga kuchli ta’sir etib, kitobxonni o‘sha asar bilan hamnafas qiladi, asardagi ijobiy qahramonlardan o‘rnak olishga o‘rgatsa, salbiy qahramonlari orqali ogohlikka chaqiradi. Shu sababli ham “Adabiyot – hayot darsligi” degan gap faqat chiroyli ta’rifgina emas, uning zamirida katta haqiqat yotadi. Zero, badiiy adabiyot, badiiy asarlar mutolaasi davomida o‘quvchi, inson qalbining tub-tubiga kirib boradi, uning turli fe’l-atvorlari bilan tanishadi, insonlar orasidagi murakkab munosabatlarni kuzatib, uning ruhiyat olamidagi o‘zgarishlarini birdek his qiladi, o‘zga insonlar tajribasi bilan o‘rtoqlashadi, buning natijasi o‘laroq u hayotga, insonlarga o‘zgacharoq yondasha boshlaydi, chuqurroq tafakkur qiladi, fikrlash doirasi kengayadi.

1-prezidentimiz I.A.Karimov so‘z san’ati, badiiy adabiyotga insonni va uning ma’naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deya ta’riflagan edilar. Chindan ham adabiyot insonga kuchli ta’sir etuvchi qudratli qurol degan gapda haqiqat bor.

Eron she’riyatidagi “yangi she’r” oqimining vujudga kelishi, badiiy adabiyotning uzviy tarkibiy qismiga aylanishi, uning rivojidan mustahkam o‘rin olishi va rivojlanib, to shu bugun ham poeziya taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi ana shunday inqilobiy va tarixiy voqeliklardan biri bo‘lgan edi. Bugungi kunda “she’r-e no‘v” Eron xalqi ma’naviy dunyosining bir bo‘lagi, xalq ijtimoiy-ma’rifiy qarashlarining ajralmas qismi, xalq ruhiyatidagi ma’naviy butunlikni o‘zida aks ettira olgan poetik voqelik hisoblanadi.

Aytish joizki, eron adabiyotida qilingan, qilinayotgan va hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar anchagina. Shu jumladan shoira Tohira Safforzoda ijodi ham o‘ziga xos bo‘lib, uni o‘rganish, she’rlarini tahlil etish borasida ba’zi ishlar amalga oshirildi. Shoira Tohira Safforzoda o‘zining ko‘p yillik ijodiy faoliyati davomida

hamma jabhalarda (shoh tuzumi, urush, siyosat, ijtimoiy vaziyat va h.k) ilg'or mafkurani ilgari suradi. Uning ba'zi she'rlarida ramziylik, so'z o'yinlari, kesatish kabi holatlarni uchratish mumkin. "She'r-e no'v" yo'nalishida ijod etgan shoira Tohira Safforzoda she'riyatini o'rganish, she'rlarini tahlil qilish bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini bildiradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tohira Safforzoda hayoti va ijodi, uning she'riyati shu kungacha nafaqat o'zbek olimlari balki, rus olimlari tomonidan ham hali ilmiy jihatdan o'rganilmagan.

O'zbek mualliflaridan M.U Mamataxunovaning³ o'quv uslubiy majmuasi va maqolasida⁴, Fors adabiyoti. Sharq xalqlari adabiyoti tarixi⁵ kitobida shoironing hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumotlar hamda ijodidan namunalarni uchratish mumkin.

Eronning tanqidchi va adabiyotshunoslari A.Dastg'oyib⁶, A.Sabziy⁷, R.Baroxoniy⁸, P.N.Xonlari⁹, G.R.Oderaxshi¹⁰, M.Huquqiy¹¹, Sh.Baxman¹², Z.Abulhusayn¹³, M.R.Ruzbeh¹⁴lar "she'r-e no'v" borasida tadqiqotlar va tahliliy ishlarni amalga oshirganlar va T.Safforzoda haqida ham boshqa shoirlar qatorida o'z ishlarida ma'lumotlar berganlar.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Zamonaviy fors she'riyatida shoiralarning tutgan o'rni va Tohira Safforzoda she'riyati mavzusini o'rganish maqsadida oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- zamonaviy eron she'riyatida "she'r-e no'v" yo'nalishi haqida so'z yuritish;

³Mamataxunova M. Eron adabiyoti. O'UM. – Toshkent. 2012.

⁴Mamataxunova M. Eron adabiyoti. O'UM. – Toshkent. 2012; Zamonaviy Eron adabiyotida shoiralarning o'rni va Tohira Safforzoda she'riyati//Sharq mamlakatlari adabiyotida adibalar ijodi va ayol obrazi. Toshkent. 2011. - B. 59-63.

⁵ Fors adabiyoti Sharq xalqlari adabiyoti tarixi. (Zamonaviy she'riyat qismi M.U.Mamataxunova tomonidan tuzilgan). Toshkent. 2016.

⁶ عبدالاعلی دستغایب بیررسی اجملی در برا یشعر نو فارسی پیام نوین. . 1960.

⁷ عبدالرضا سبزی : "سیک شعر نو" تهران، 1971 .

⁸ رضا براخانی، شعر امروز، تهران، 1969

⁹ پرویز ناتل خانلری، مجرای شعر، تهران، 1971: پست و بلند شعر نو، تهران، 1962.

¹⁰ رعدی غلامعلی آدرحشی، شعر معاصر ایران، تهران، 1968.

¹¹ محمدحقوقی، شعر نو از آغاز تا امروز، تهران، 1972.

¹² شاریک بهمان، نیما و شعر در پاسی، تهران، 1971.

¹³ زرینکوب عبلاحسین، شعر بنقاب شعر بدروغ، تهران، 1967

¹⁴ Muhammad Rizo Ruzbeh.Hozirgi zamon Eron adabiyoti.. –Toshkent 2012. دکتر محمد رضا روزبه .ادبیات معاصر ایران. شعر. چاپ چهارم. تهران. 2009 .

- zamonaviy fors she'riyatida shoiralarning tutgan o'rni va Tohira Safforzoda hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish;
- Tohira Safforzoda she'riyatida mavzular ko'lami va ramziy obrazlarni ochib berish;

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Mazkur ish zamonaviy fors shoirasi Tohira Safforzoda she'riyatida mavzular ko'lami va ramziy obrazlarni tahlil etilishi bo'yicha bakalavirlik darajasini olish uchun qilingan dastlabki o'zbek tilidagi ish hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti Tohira Safforzoda she'riyati bo'lib, ishning predmeti – shoir she'riyatida mavzular ko'lami va ramziy obrazlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari. Bakalavr ishida qo'yilgan maqsad va vazifalarni yoritishda o'zbek adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlarga, jumladan Eron Islom Respublikasida hamda Eron Islom Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi tomonidan nashr etilgan kitoblardan foydalanilgan.

Mazkur ish natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur ish natijalari zamonaviy fors shoirasi Tohira Safforzoda she'riyatida mavzular ko'lami va ramziy obrazlar talqinini nazariy anglash imkoniyatini yaratadi. Tohira Safforzoda she'riyatida turli mavzular, ularning talqin etilishi, ramziy obrazlar talqin etishda shoironing poetik mahoratining ko'p qirraliligini o'rganish orqali shoironing mahoratini anglash uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishi oliy o'quv yurtlarining filologiya, Sharq filologiyasi, xususan, eron filologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda, zamonaviy Eron adabiyoti bo'yicha maxsus kurslar tayyorlashda manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar ro'yhatidan iborat.

1-bob. “She’r-e no‘v” yo‘nalishida shoirlarning tutgan o‘rni va Tohira Safforzoda she’riyati

1.1. Zamonaviy Eron she’riyatida “she’r-e no‘v” yo‘nalishi

She’riyat Eronning ijtimoiy tafakkur ahli uchun asrlar davomida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Eronda shaxsning ahloqiy normalari qadim zamonlardan beri she’riy tarzda shakllantirilgan.

Ikkinchi jahon urushi Eron siyosiy va ijtimoiy hayotida tubdan o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. Bu davrni tarixchilar Eronning “*qora kunlar*”i deb haqli ravishda baholaganlar¹⁵. Mavjud tizimga qarshi chiqqan ko‘plab shoirlar va yozuvchilar qatag‘on qilindi. Mashhur adabiyotshunos olim Parviz Xonlariy Eron yozuvchilarining 1946-yili bo‘lib o‘tgan birinchi s‘ezdida bu davr haqida iztirob bilan shunday degan edi: “Rezoshoh davrida qatag‘onlik va mirshablar ta’zyiqi shu darajaga etdiki, ular yozuvchi va shoirlar yuragidagi badiiy ijodga bo‘lgan har qanaqa intilishni o‘ldirdilar. Iztirob, g‘am-anduh ruhidagi she’rlarni chop etish qat’iyan man qilindi, faqatgina shodlik va hayotdan mamnunlik ruhidagi she’rlar yozish talab etildi”¹⁶.

40-yillarning oxirlariga kelib ijod ahli va adabiyotshunoslar uchta jurnal: “So‘xan” (“So‘z”), “Peymon-e no‘v” (“Yangi xabarchi”) va “Dunyo” atrofida birlashdilar. Parviz Notel Honlariy, Sodiq Hidoyat, Bo‘zo‘rg Alaviy, Ehson Tabariy kabi mashhur yozuvchi va shoirlar bu jurnallarda o‘z ijod namunalarini chop etib bordilar. Bu davr she’riyatida ikkita: an‘anaviy va yangi tipdagi yo‘nalish mavjud edi. XX asrning boshlaridanoq iboralarning aniqligi va obrazlarning soddaligi bilan ajralib turgan xuroson uslubining yangilangan shakli rivojlandi. Adabiyotshunoslar bu uslubni asl forsiy uslub deb hisoblaganlar. Chunki uning paydo bo‘lishi mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davr (XII asr)ga borib taqaladi. Lekin qanchalik mashhur bo‘lmasin bu uslub Eron she’riyatining istiqboldagi asosiy yo‘nalishlarini belgilab bera olmadi. Bu vazifani

¹⁵ История персидский литературы XIX-XX веков. –Москва., 1999. С.118.

¹⁶ O‘sha adabiyot., –B.118.

40-50 yillardan boshlab “she’r-e no‘v” atalgan adabiy yo‘nalishi o‘z zimmasiga oldi.

Albatta bu yo‘nalish birdaniga paydo bo‘lmagan. XX asrning boshlaridanoq, dastlab Eron, Suriya, Livan she’riyatida yangilanish harakati vujudga kelgan edi. Bu harakat “Yangi she’r” (“She’r-e no‘v”, “Ash-she’r al-hadis” yoki “She’r-e ozod”) nomi bilan atalgan. Eronda mazkur she’riyat XX asrning ikkinchi yarmida bir-biriga diametral teskari bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy rejimlar 1950-70 yillarda Muhammad Rizoshoh Pahlaviy va 1979-yildan hozirgi davrgacha bo‘lgan Eron Islom Respublikasi ta’sirida vujudga keldi¹⁷. Eron jamiyatida yuz bergan “Mashruta” inqilobi “yangi she’r”ning yuzaga kelishiga bosh sababchi bo‘lgan. Mashrutiyat inqilobi Eron tarixidagi ijtimoiy, siyosiy, ayniqsa madaniy sohadagi o‘zgarishlarning eng muhim omillaridandir. Bunday o‘zgarishlarning eng muhimlari sifatida nasr va she’riyatning ikki qismga – mumtoz va yangi davrga ajratilganini ko‘rishimiz mumkin¹⁸. Mashrutiyat davrida yaratilgan she’rlar sodda, tushunarli, oddiy so‘zlashuv va g‘arb terminlaridan foydalangan holda yozilgan. Ijtimoiy mavzuda ijod qiladigan mashrutiyat shoirlari ko‘pincha an’anaviy va oddiy she’riy qoliplarga yangi mazmun va ma’no bag‘ishlardilar. Masalan, Bahor va Farohaniy mumtoz qolipda yangi ijtimoiy va tanqidiy mavzularni aks ettirgan holda qasidalar bitishgan¹⁹. Mashrutiyat davri mumtozlikdan yangilanishga o‘tish davri bo‘ldi. Bu davr shoirlari jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarga yangicha nigoz bilan qarardilar. Bu davrda ko‘plab yozuvchi va shoirlar etishib chiqdi. Yangi she’r asoschilaridan hisoblangan Nimo Yushij, uning davomchilari Gulchin Giloniy, Faridun Tavalluliy, Nodir Nodirpur, Ahmad Shomlu, Siyovush Kasroiyy, Suxrob Sepehriy va ko‘plab iste’dodli shoirlar mazkur uslubda samarali ijod bilan shug‘ullanishdi.

XX asr oxirida Eronda modern tafakkur, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy modernizatsiya jarayoni tezlashdi. Bu jarayondan adabiyot sohasi ham chetda qolmadi. G‘arb adabiy va tilshunoslik harakati, afsonalarning tadqiq etilishi, sharq

¹⁷ В.Б.Кляшторина. Новая поэзия в Иране., –М., 1975.

¹⁸ عبدالرضا سبزی : "سبک شعر نو" ص 1

¹⁹ Muhammad Rizo Ruzbeh. “Hozirgi zamon Eron adabiyoti”. , – T., 2012. –B.18-19.

va g'arb modern tadqiqotlari va nazariyalarning tarjimalari va ularning yo'nalishlari: formalizm, qurilish (soxtgori), qayta qurilish (passoxtgori), fenimizm kabi hodisalar qalam ahlini yangi ufqlarga yo'lladi. Modern va postmodern yo'nalishida yozilgan romanlar va she'rlar tarjimalari, psixologik asarlar va boshqalar estetik zavqni oshirib yubordi²⁰.

Yangi she'r yangicha dunyoqarash, yangi ma'naviy qadriyatlar tizimini o'zida aks ettirdi va yangi estetik me'yorlar, yangi problematika, obrazlar sistemasi, badiiy materialni yangicha prinsiplar orqali etkazishi bilan xarakterlanadi. "She'r-e no'v"ning paydo bo'lishi asosini – dunyoqarashlar almashinuvi tashkil etadi. Yangi va mumtoz she'riyatning asosiy farqi shu nuqtada yaqqol namoyon bo'ladi²¹. Bu yo'nalish namoyandalari keskin o'zgarib borayotgan voqelik, mustaqillikka erishish, yangi hayot barpo etish kabi muhim ijtimoiy jarayonlarni targ'ib etishni o'zlarining vazifalari deb bilganlar.

60-70 yillarga kelib "she'r-e no'v" o'z g'oyaviy yo'nalishlari va mavzular silsilasiga ega bo'la boshladi. Uning o'z estetik ideali shakllandi, she'riyat o'ziga xos stilistik tuzilishga ega bo'ladi. Yangi she'riyat jamiyatning intellektual salohiyatini belgilovchi omilga aylandi. Madaniy jarayonning keng rivojlanishi rasmiy targ'ibotning kuchayishi bilan barobar bordi. Yangi she'riyat rasmiyatchilik, qotib qolgan g'oyalar va tizimlar, konservatizmga qarshi harakatga aylandi. Yangi she'riyat jamiyatdagi ilg'or g'oyalarning shakllanishi va keng tarqalishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, yangi she'riyatga xos bo'lgan modernizmga qaramay bu oqim ilg'or g'oyalarning tarqalishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotning ijtimoiy rolini oshishi 60-yillar oxiridagi she'riyat baxslarining keskinlashuvi va Eron adabiyotiga tanqidiy nazarning kuchayishi sabab bo'layotgan edi. Bunga guvoh qilib mashhur olimlar va shoirlar, tanqidchilarning maqolalari hamda kitoblarini ko'rsatish mumkin. Bular P.N.Xonlari, G.R.Aderaxshi, B.Omid, N.Nodirpur va boshqalar. "She'r-e no'v"

²⁰ В.Б.Кляшторина. Новая поэзия в Иране. - М., 1975.

²¹ История персидский литературы XIX-XX веков. - М., 1999. С.121.

adabiy oqimiga nisbatan boshqa mamlakatlar olimlari tomonidan katta ilmiy qiziqish vujudga kelgan. Sovet Ittifoqi tarkibida yashab, ijod qilgan olimlardan V.B.Klyashtorina, R.Aliev, J.Badiy, B.M.Guseynov, D.Komissarov, S.Davronov²² kabilar yangi va zamonaviy she'riyat tamoyillari borasida o'z fikrlarini bildirishgan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, 60-yillarga borib "yangi she'r"da ijod qiluvchi bir guruh shoirlar o'zlarini "yangi avlod shoirlari" deb nomlab, she'rlarini "yangi mavj" rukni ostida gazeta, jurnallarda tez-tez chop eta boshladilar. Bu guruh namoyandalari Hushang Ironiy, Ahmad Rezo, Bijan Ilohiy, Ismoil Nuri Ali bo'lib, mumtoz she'riyatdagi an'anaviy unsurlar, so'z o'yinlarini chetlab, faqat hayotiy-ijtimoiy masalalarni bayon qilishga ko'proq ahamiyat bera boshladilar. Ularning ijodlarida realistik ohang kuchayib borgan. Realistik yo'lning turli oqimlari ta'siri kuchaydi. Voqealarni realistik ifoda etishda yangi obrazlilik, ertaknamo syujetlar, xalq badiiy tafakkuri ta'siri va folklor motivlarini o'rinli ishlatish, majoziylik, lirik qahramonni voqealar girdobiga tashlash kuchaydi.

70-yillarning boshlarida "she'r-e no'v"ning davriy ko'rsatkichlarini umumlashtiruvchi ishlar paydo bo'ldi, shuningdek ushbu ishlar "yangi she'riyat"ning dunyoviy nazariga va obrazlilikiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Baxsning asosiy mavzusi she'rning forsiy asosidagi me'yoriy qoidalarining haqqoniyligini tasdiqlash edi. Ushbu baxslar Eronda klassik adabiyotning hamda uning estetik qoidalarining hokimligini hisobga olgan holda tushunilishi mumkin edi. Shuning uchun she'riy shakl "an'anaviy" yoki "yangi she'riy tizim"ning afzalliklari haqidagi baxslar she'riyatning mamlakat zamonaviy hayotidagi o'rni va roli to'g'risidagi baxslarga aylanib ketdi. Bu esa o'z navbatida aniq ko'zga tashlanadigan g'oyaviy yo'nalishga ega edi. Mumtoz adabiy an'analarni ta'siri kuchliligiga qaramay modernizatsiya tufayli kirib kelayotgan yangiliklar adabiy hayotda o'zgarishlar shamolini olib kira boshladi²³. Nimo Yushij (1895-1959)

²² Davronov S. Vazni ashore Abduqosim Lohutiy. –Dushanbe., Donish. 1974.

²³ В.Б.Кляшторина. Новая поэзия в Иране. – М., 1975

Eronda birinchi bo‘lib erkin she‘rga o‘z e‘tiborini qaratdi. U she‘rning yangi ritmikasi va obrazini yaratdi. Nimo Yushij she‘rning klassik musiqiy fonini saqlab qolgan holda, uning vaznini o‘zgartirdi. Mumtoz she‘riyatga xos ritm, qisqa va uzun unli tovushlarning ketma-ketligi, ichki tovush simmetriyasi o‘zgarishsiz qoldi. Ammo she‘riy misra klassik she‘rning misrasidek an‘anaviy bo‘lmasdan ohangga moslashdi. Bu yangilik “erkin aruz” nomini oldi va o‘ziga xos zamonaviy tematikasiga tayanib, “She‘r-e no‘v” – “Yangi she‘r” maktabiga asos soldi

Yarshater bo‘lajak yangi she‘riyatga ta‘rif berishda o‘zining fikr va qarashlarini namoyish qiladi. U Nimo Yushij izdoshlarining ijod namunalarida ko‘plab nuqsonlarni ko‘rsatish bilan birga, she‘riyatda yangilanish kerakligi va zarurligiga tan beradi. Yarshater 1960-yilning o‘zida “she‘rlarida she‘riyatning o‘tmish yuklaridan yengillashtirib, unga yangilanish elementlarini va unda an‘analarni saqlab qolganligi bilan zamondoshlari orasida hamfikrlikni o‘rgatgan Furug‘ Farruxzod, M.Omid va Kasroiy kabi yosh shoirlarni alohida ko‘rsatib o‘tadi”²⁴.

XX asr Eron demokratik she‘riyatining rivojlanishi unda ijtimoiy mavzuning kuchayishi bilan mashhur edi. She‘riyat muammolarining zaruriy ijtimoiy masalalar bilan uzviyligi she‘riy ongning tubdan o‘zgarishiga olib keldi. XIX-XX asrlar davomida yevropa she‘riyatining rivojlanishi ratsionalistik she‘riyatdan xalos bo‘lish va vilibrni tasdiqlash belgisi ostida borayotgan edi. Eron an‘analarida chetlashish XX asrning 40-yillarida ijod qilgan Nimo Yushij va urushdan keyingi yosh avlod shoirlari ijodlarida aniq ko‘zga tashlandi. Ana shu vaqtdan boshlab yangi estetik qadriyatlar va yangi obrazlar tizimi shakllana boshlandi. Ushbu yangi she‘riy tizimda so‘zning she‘riyligi uning belgilangan stilistik me‘yorga emas, balki yangi g‘oyaviy va tarixiy matnga tegishliligi bilan belgilanadi.

XX asr Eron she‘riyatida yangiliklar kiritish va an‘analar muammolarini uslubiy ishlab chiqish B.M. Xuseynov maqolalarida yoritib berilgan. Muallif XIX-XX asrlar davomida she‘riyatning mazmun va shakl sohasidagi

²⁴ Jarshater Ehsan. “Persian letters in the last fifty years”. 1960. page -306

yangilanishini ko'rsatibgina qolmay "She'r-e no'v" ning zamonaviy bosqichini tushunish uchun muhim jihatlarini ajratib bera oldi. Shu o'rinda "yangi she'r" asoschilari adabiyotni har tomonlama o'gartirish, yangi mazmunni Yangi poetik shakllarda bayon qila boshladilar. Ular qofiyalarni orqa-oldinga o'tkazish yoki misralarni uzun-qisqa qilib, keltirish bilan cheklanib qolmasdan, eng muhimi ish uslubini o'zgartirib, kitobxonlarning ongli dunyosidagi tavsifiy va naqliy shakllarni she'riyatga ko'chirdilar

I.S.Braginskiy va D.S.Komissarov o'zlarining "Fors adabiyoti" nomli qisqa ocherkida 40-50 yillarda mavjud bo'lgan fors she'riyatining yangilanishi haqida to'xtalib o'tadilar. Yangi fors she'riyati, xususan "she'r-e no'v"ning muammolari X.G. Koroglning yangi adabiyot bo'yicha ma'ruzalar kursida yoritib berilgan. Ba'zi adabiyotshunos olimlar "she'r-e no'v"ni erkin she'r bilan taqqoslash mumkin emas degan fikrni bildirib o'tadilar. Bunga erkin she'r "yangi she'r" ning shakllaridan biri degan qarash sabab bo'ladi. "She'r-e no'v" oqim sifatida o'ziga juda keng tushunchalarni qamrab oladi, jumladan, g'oyaning yangiligi, dunyo xodisalarni yoritishning yangi usullari, yangi kayfiyat, yangi she'riy obrazlilik kabi holatlar.

Adabiyotning umumiy jonlanishi hamda she'riyat, nasrda va dramaturgiyada yangi nomlarning paydo bo'lishi adabiy tanqid darajasining oshishiga olib keldi. Bu davrda fors she'riyati jamiyat va zamonning rivojlanish tezligiga qarab, o'zining shohona libosini yechib tashladi. Yangi she'r devon va saroyning tor devorlaridan qochib, ko'cha va bozorlarning keng maydoniga qadam tashlab, qo'zg'algan xalq bilan hamdam-u hamnafas bo'la boshladi.

Yangi she'riyat doirasida she'riy shakl va she'riy mazmun o'zgarishlari uzviy bog'liqlikda amalga oshdi. Yillar davomida sayqallanib, o'ziga xos badiiy butunlikka aylandi. She'rda obrazlilik, ritm, poetik so'z mutanosibliги kuchaydi. Yangi she'riyatda ritmning she'rdagi vazifasi an'anaviy she'riyatga nisbatan butunlay yangi asosda qayta shakllantirildi. Ritm poetik fikr portlashining she'rdagi in'ikosiga aylandi. Ritm – she'rning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Yangi she'riyatda ritm g'oyaviy yo'nalish va shoir

idrokining muhim o‘rinlari ifodasini beruvchi muhim vazifani o‘z zimmasiga oladi. Yangi she‘riyatda ritmiy ohangdorlik badiiy obrazlilikni yaratuvchi unsurlardan biriga aylandi. Yangi she‘riyatdagi she‘r ritmiga oid o‘zgarishlar quyidagilar²⁵:

- ritm she‘r g‘oyasini ifodalashga ko‘mak beruvchi unsurga aylandi;
- badiiy zarb va maromning she‘r mazmuni bilan aloqadorligi kuchaydi;
- ritm badiiy obrazning yaratilishida ishtirok eta boshladi;
- ritm tekis va notekis harakatlar orqali she‘r mazmuniga ta‘sir qila boshladi;
- ritmnining estetik mohiyati kuchaydi;
- lirik qahramon kechinmalari va his-tuyg‘ulari ifodasi sifatida ritm muhim o‘rin tuta boshladi.

Muhammad Huquqiyning “Yangi she‘r: paydo bo‘lganidan hozirgacha” nomli kitobida zamonaviy she‘riyatda ijod qilgan har bir yirik shoir ijodiga, asarlarining bibliografik xarakteristikasiga to‘xtalib o‘tadi²⁶. Bu esa “she‘r-e no‘v”ning tarixiy rivoji hamda shakllanish bosqichlari, shoirlar ijodi mahsullari bo‘yicha to‘laqonli, mukammal va sifatli axborot olish imkonini beradi.

Muhammad Huquqiy tadqiqotiga asoslanib, “she‘r-e no‘v” oqimi takomilini quyidagi o‘n yilliklar asosida shakllantirish mumkin:

Birinchi va ikkinchi o‘n yilliklar – 1921-1941 yillar – yangi she‘riyatning asosiy namoyandasi Nimo Yushij.

Uchinchi o‘n yillik – 1941-1951 yillar – Nimo Yushij, Gulchin Giloniy, Faridun Tavalloliy, Parviz Notel Xonlariy, Manuchehr Shayboniy, Hushang Ironiy, Ahmad Shomlu, Ismoil Shohrudiy, Siyovush Kasroi, Hushang Ibtihoj, Nusrat Rahmoniy.

To‘rtinchi o‘n yillik – 1951-1961 yillar – avvalgi o‘n yillikdagi shoirlarga tadqiqotchi Faridun Mashiriy, Muhammad Zohiriy, Hasan Hunarmandiy, Nodir Nodirpur, Manuchehr Otashi, Fo‘rug‘ Fo‘rug‘zod.

²⁵ To‘ychiyeva.G.U. Eron poeziyasida “yangi she‘r” adabiy oqimi takomili masalalari.// Sino, 2007, № 4.

²⁶ محمد خفوقی: "شعر نوع از آغاز تا امروز". تهران، جلد دوم، 1996

Beshinchi o'n yillik – 1961-1971 yillar – avvalgi o'n yilliklardagi shoirlar tarkibiga tadqiqotchi Yadulloh Aminiy, Bijan Jaloliy, Yadullo Ruyoiy, Faruh Tamimiy, Mahmud Kiyoniy, Rizo Barohaniy va boshqalar.

Oltinchi o'n yillik – 1971-1981 yillar – avvalgi o'n yilliklardagi shoir va tadqiqotchilardan tashqari Kozim Saodat Ashkuriy, Javod Majobiy, Muhammad Muhtoriy, Emron Saloxiy va boshqalar.

Ettinchi o'n yillik – 1981-1991 yillar – avvalgi o'n yillikdagi shoirlardan tashqari Faromarz Sulaymoniy va Shams Langrudiy.

Shunday qilib, Eronda XX asrning 40-yillardagi she'riyatida ikkita: an'anaviy va yangi tipdagi yo'nalish mavjud edi. XX asrning boshlaridanoq iboralarning aniqligi va obrazlarning soddaligi bilan ajralib turgan xuroson uslubining yangilangan shakli rivojlandi. Adabiyotshunoslar bu uslubni asl forsiy uslub deb hisoblaganlar. Chunki uning paydo bo'lishi mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davr (XII asr)ga borib taqaladi. Lekin qanchalik mashhur bo'lmasin bu uslub Eron she'riyatining istiqboldagi asosiy yo'nalishlarini belgilab bera olmadi. Bu vazifani 40-50 yillardan boshlab "she'r-e no'v" adabiy yo'nalishi o'z zimmasiga oldi. 60-70 yillarga kelib "she'r-e no'v" o'z g'oyaviy yo'nalishlari va mavzular silsilasiga ega bo'la boshladi. Uning o'z estetik ideali shakllandi, she'riyat o'ziga xos stilistik tuzilishga ega bo'ladi. Yangi she'riyat jamiyatning intellektual salohiyatini belgilovchi omilga aylandi. Madaniy jarayonning keng rivojlanishi rasmiy targ'ibotning kuchayishi bilan barobar bordi. Yangi she'riyat rasmiyatchilik, qotib qolgan g'oyalar va tizimlar, konservatizmga qarshi harakatga aylandi. Yangi she'riyat jamiyatdagi ilg'or g'oyalarning shakllanishi va keng tarqalishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, yangi she'riyatga xos bo'lgan modernizmga qaramay bu oqim ilg'or g'oyalarning tarqalishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yangi she'riyat doirasida she'riy shakl va she'riy mazmun o'zgarishlari uzviy bog'liqlikda amalga oshdi. Yillar davomida sayqallanib, o'ziga xos badiiy butunlikka aylandi. She'rda obrazlilik, ritm, poetik so'z mutanosibliigi kuchaydi. Yangi she'riyatda ritmning she'rdagi vazifasi an'anaviy she'riyatga nisbatan butunlay

yangi asosda qayta shakllantirildi. Ritm poetik fikr portlashining she'rdagi in'ikosiga aylandi. Ritm – she'rning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Yangi she'riyatda ritm g'oyaviy yo'nalish va shoir idrokining muhim o'rinlari ifodasini beruvchi muhim vazifani o'z zimmasiga oladi. Yangi she'riyatda ritmiy ohangdorlik badiiy obrazlilikni yaratuvchi unsurlardan biriga aylandi. Yangi she'riyatdagi she'r ritmiga oid o'zgarishlar quyidagilar:

- ritm she'r g'oyasini ifodalashga ko'mak beruvchi unsurga aylandi;
- badiiy zarb va maromning she'r mazmuni bilan aloqadorligi kuchaydi;
- ritm badiiy obrazning yaratilishida ishtirok eta boshladi;
- ritm tekis va notekis harakatlar orqali she'r mazmuniga ta'sir qila boshladi;
- ritmning estetik mohiyati kuchaydi;
- lirik qahramon kechinmalari va his-tuyg'ulari ifodasi sifatida ritm muhim o'rin tuta boshladi.

1.2 Zamonaviy fors adabiyotida ayollarning o'rni va Tohira

Safforzoda she'riyati

Eron ayollari masal, afsona, epik rivoyatlar, irfoniy, dini va oshiqona she'riy janrlarda doimo asosiy obrazlar sifatida talqin etib kelingan. Shu bilan birga, ular boshqa Sharq ayollari kabi tarixiy va ijtimoiy-madaniy sohalarda faoliyat olib borib, o'zlariga xos o'ringa ega bo'lganlar.

Mumtoz va zamonaviy eron adabiyotining qator mummolari bo'yicha tadqiqotlarda eronshunoslikda anchagina ishlar qilingan. Eron, rus va o'zbek eronshunoslari mashhur shoirlar va yozuvchilar haqida kitoblar, to'plamlar, monografiyalar, maqolalar yaratganlar. Biroq, bu ishlarda Eron shoirlariga yetarli e'tibor berilmagan. Eron shoirlari ijodini o'rganmasdan turib, Erondagi adabiy jarayon manzarasini to'liq tasavvur etish esa mushkuldir. Chunki Eron shoiralari asarlarida eron adabiy hayotining o'ziga xos muhim jihatlari yorqin ifodalangan.

Ayollar eronning epik, tarixiy, irfoniy, diniy va ishqiy rivoyatlari, dostonlari va afsonalarida doimo yashagan va ishtirok etgan²⁷.

Ammo bugun mashriq zaminida umumiy hayot tizimining erkaklar qo'lida ekanligiga bog'liq ravishda haqiqiy sahnasida ayollar (jumladan Eron ayollari ham) har doim tarix va jamiyatning chekkasida yashagan. Sharq ayollari qoloqlik va huquqsizlik iskanjasida bo'lganlar.

XX asr boshlarida Osiyo mintaqasida milliy-ozodlik harakatlarining ko'tarilishi davri bo'ldi. Inqilobiy harakatlarga hatto barcha huquqlardan mahrum bo'lgan xotin-qizlar mitingi bo'lib o'tib, ular o'zlarining talablarini ilgari surganlar. Olg'a surilgan talablar ichida xotin-qizlar maktablarini tashkil etish ham bor edi²⁸.

Tarixning qorong'uligida ilm, san'at, fiqh, hadis, irfon, she'riyat va boshqa sohalarda ba'zida go'yo mash'aldek yonib chiqqan ayollarning bo'lganligiga qaramasdan, Eron ayollarining haqiqatda jamiyat hayotida ishtirok etishi mashrutiyatdan keyingi davrga, ya'ni eronliklarning Yevropa madaniyati bilan tanishgan davrga borib taqaladi. Huddi mana shu davrdan boshlab ayol juda ko'plab forsiy she'rlar, hikoyalar, pyesalar va filmlarning mavzusiga aylandi.

Bonu Shams Kasmoyi, Parvin Etisomiy va Fotima Siyoh kabi uyg'onish asrining boshlaridagi ba'zi madaniyat arboblardan qat'iy nazar hijriy XIX asrning yigirmanchi va o'ttizinchi (XX asrning qirqinchi-elliginchi) yillaridan boshlab

²⁷ Ko'proq m'lumot uchun quyidagi manbalarga qaralsin: Vusto Sarhush Kartis. Ustureho-ye ironi. Tarjome-ye Abbas Mo'xber. – Tehron: Nashr-e markaz, 1373; Ustureho-ye beyn o'n-nahrayniy. Henrito Makgo'l. Tarjo'me-ye Abbas Mo'xber.- Tehron: nashr-e markaz, 1373; Hoshem Razi. Avesto-tehron: Nashr-e Fo'ruhar, 1369; Bo'ndaheshn. Go'zorande Mehrdod Bahor, 1369; Mo'rtazo Rovandiy. Torix-e ejtemoi-ye Iron. – Tehron: Amir Kabir; Vil Durant. Bi torixe tamaddun. Tarjume-ye Ahmad Orom (Mo'jalladho-ye gunogun). –Tehron: Sozmon-e enteshorot va omuzesh-e enqelob, 1365; Tasvir-e zan dar farhang-e ironi, Sayid Muhammadali Jamalzode, Amir Kabir, 1357; Mehrangiz Kor. Ho'quq-e siyosi-ye zanon-e Iron. – Tehron: Ro'shangaron va mo'tale'ot-e zanon, 1376; Rayohin ash-shari'e, Sheyx Zabihulloh Mahloni,(panj mo'jallad), Dor ul-ko'to'b ul-eslomiye; Jamile Kadivar – zan. – Tehron: Enteshorot-e “Ettelo'ot”, 1375; Ali Akbar Mashir Salimi. Zanon-e so'xanvar (se mo'jallad), Nashr-e elmi, 1335-37; Abbas Tillo. Zan dar oyine-ye torix. Noshir, 1371; Jalol Sattoriy. Siymo-ye zan dar farhang-e Iron. –Tehron: Nashr-e markaz, 1373; Shaxlo Lohijiy va Mehrangiz Kor. Shenox-e huyat-e zan-e ironi dar go'stare-ye pish-e torix va torix. Ro'shangaron va mo'tole'ot-e zanon. 1377; Mo'rtazo Mutaxarriy. Nezm-e ho'quq-e zan dar eslom. – Tehron: Nashr-e Quddus, Qum, 1358; Shinud Ebulen. Nemotho-ye suture-yi va ravonshenosi-ye zanon. Tarjo'me-ye Ozar Yusufiy. – tehran, Ro'shangaron, 1373.

²⁸ Иванов М.С. Влияние русской революции 1905 г на иранскую революцию 1905-1911гг. Ученые записки ЛГУ. Вып. 1. 1949. –С. 344.

ijtimoiy vaziyatni o'zgartirish, madaniy qarashlar saviyasini oshirish va ayollarning ijtimoiy faoliyatlar maydoniga keng miqyosda kirib kelishi yo'lida bu tabaqaning adabiyot sahnasida jiddiy va yaratuvchan kuch sifatida mavjudligi namoyon bo'ldi. Furo'g' Farruxzod, Simin Behbahoniy, Parvin Davlatobodiy va Tohira Safforzoda kabi shoirlarning paydo bo'lishi ayollar adabiyotining vujudga kelishi uchun keng va tekis yo'l ochib berdi, natijada qirqinchi-elliginchi (oltmishinchi-etmishinchi) yillarda shoirlar, ayol yozuvchilar va boshqa ayol ijodkorlarning matbuot va adabiy doiralaridagi ishtiroki keng tus oldi. Shuni aytib o'tish lozimki, Simin Donishvar, Mahshid Amirshohiy, Guli Taraqqiy, Shahrnush Porsipur va keyinchalik G'azzola Alizoda, Maniru Ravoniypur, Xotira Hijoziy, Roziya Tujjor, Samiro Aslonpur, Fahima Rahimiy, Nasrin Somaniy va boshqa zamonaviy shoirlarning (ularning har birining asarlarining sifatidan qat'iy nazar) ishtiroki ham ayollar madaniy muhitining vujudga kelishi va ayollar she'riyatining rivojiga yordam berdi. Eron ayollari bilimi va dunyoqarashining o'sishi bilan birga, inqilobdan keyingi yillarda ayollar adabiyoti sahni ham kun sayin kengayib bordi²⁹.

XX asrning boshlarida arab davlatlari, Turkiya va Eron siyosiy maydonida ilk bor xotin-qizlar paydo bo'ldi, ularning insoniy qadr-qimmatlarini oyoqosti qilayotgan diniy aqidalar, urf-odatlariga ko'tardilar. Bu voqealar qator adabiyotlarda o'z aksini topgan. Masalan, Misr yozuvchisi va jamoat arbobi Qosim amin o'zining "Xotin-qizlarni ozod qilish" (1899) va "Yangi ayol" (1902) kitoblarida bu muammolarni ko'tarib chiqib, uning asarlari musulmon ayollarni ozod qilish masalasida ijobiy rol o'ynaydi.

Eronda xotin-qizlar masalasi birinchi bor taraqqiyparvar matbuot nashri – "Sure Esrofil" ("Isrofilning surnayi") jurnalida va "Nasime shemol" ("Shimol shabadasi") ro'znomasi sahifalarida ko'tarilib chiqildi. Shuni ham aytib o'tish

²⁹ Ko'proq ma'lumot uchun quyidagi manbalarga qaralsin: Faromarz Sulaymoniy. Borvartar az bahor. Naqdu barrasiy va namunehoyi az she'r-e zanon-e Iron. – Tehron: Do'nyo-ye modar, 1371; Farzin Yazdonfar. Dostonho-ye navisandegon-e zan dar Iron da'd enqelob (maqole). //Ironshenosi. – B. 4, sho'more-ye 2, toboston 1371.; Zanon-e dostonnavis dar Iron. Be kushesh-e Muhammdboqer Najafzode Borfo'rush. "M. Rujo", 1375.

joizki, taraqqiyparvar fors adabiyotining rivojlanishiga inqilobiy-demokratik Ozarbayjon adabiyotining ta'siri ham katta bo'lgan³⁰.

Eron xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish harakatida taraqqiyparvar Eron yozuvchi va shoirlaridan Adib ul-Mamolek Farahoniy (1861-1917), Mirza Ali Akbar Dehxudo (1880-1956), Abulqosim Lohutiy (1887-1967), Said Ashrafiddin Giloniy (1872-1934), Orif Qazviniy (1882-1933), Vohid Dastgiri (1879-1943), Malik ush-shuaro Bahor (1886-1951), Iroj Mirzo (1874-1926), Mirzoda Ishqiy (1894-1924) va boshqalar katta rol o'ynaganlar.

XX asr boshida o'z ijodini taraqqiyot uchun kurashga va xalqiga bag'ishlagan qator mahoratli shoiralarni adabiy maydonga keltirdi. Ularning orasida Jole Farahoniy (1883-1946), Parvin Eltisomiy (1907-1941), Jole Isfahoniy (1922-yil tug'ilgan), Simin Behbehoniy (1927-yil tug'ilgan), Furo'g' Farruxzod (1935-1967), Shahnoz Olamiy va boshqalar katta o'rin tutganlar. Ular Eronning ijtimoiy va adabiy hayotida muhim ro'l o'ynab, ularning asarlari kelajakka intilish, his-tuyg'ularning sofliigi va niyatlarning oliyjanoblighi bilan ajralib turadi. Ular bu asarlarda musulmon ayollarning qiyin qismati haqida, xotin-qizlarining havotirlari va g'am-tashvishlari haqida, diniy urf-odatlardagi qiyinchiliklar haqida chuqur qayg'u bilan so'z yuritadilar.

Ayollarning faollighi tufayli Eron adabiyotiga mardona va jasoratli siymolar kirib keldi. Ilm-fan, hunar, adabiyot sohalarida Eronda ayollarga nisbatan yaxshi munosabat bildirilmagan vaqtlarda ham, tarixning eng mudxish davrlarida ham, ayollar o'z faolliklarini tinmay davom ettirdilar.

Konstitutsiya davri, ya'ni eronliklarning Yevropa adabiyoti va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyati tug'ilish davrini boshlanishi bilan Eron ayollari jamiyatda o'zlariga xos o'ringa ega bo'ldilar. Ayollar ozodlik va huquq masalalariga eng asosiy masala sifatida yondashib, mana shu davrdan boshlab Eron adiba va shoiralari o'z she'r, doston, pyesa va filmlarida turli siyosiy, ijtimoiy-maishiy mavzularni ko'tarib chiqa boshladilar.

³⁰ Qarang: Mubarez Ali-zade. Пути развития демократических идей в персидской литературе XIX вв.

XX asr boshida, ya'ni "bedorlik" davridan boshlab Eron shoira va adabiyotshunoslaridan Bonu Shams Qasmoniy, Parvin Eltisomiy, Fotima Siyoh va boshqalar, 40-60 o'n yilliklardagi ijtimoiy, madaniy rivojlanish va o'zgarishlar tufayli adabiyot maydoniga avvalgidan ham ko'proq shoiralarning, jumladan, Furug' Farruxzod, Simin Behbehoniy, Parvin Davlatobodiy, Tohira Safforzodalarning kirib kelishi ko'zga tashlanadi.

Ayollarning faolligi tufayli Eron adabiyotiga mardona va jasoratli siymolar kirib keldi. Ilm-fan, hunar, adabiyot sohalarida Eronda ayollarga nisbatan yaxshi munosabat bildirilmagan vaqtlarda ham, tarixning eng mudhish davrlarida ham, ayollar o'z faolliklarini tinmay davom ettirdilar.

XX asr boshida, ya'ni "bedorlik" davridan boshlab Eron shoira va adabiyotshunoslaridan Bonu Shams Kasmoy, Parvin Etisomiy, Fotima Siyoh va boshqalar, 40-60 o'n yilliklardagi ijtimoiy, madaniy rivojlanish va o'zgarishlar tufayli adabiyot maydoniga avvalgidan ham ko'proq shoiralarning, jumladan, Furo'g' Farruxzod, Simin Behbehoniy, Parvin Davlatobodiy, Tohira Safforzodalarning kirib kelishi ko'zga tashlanadi³¹.

60-70 yillarda shoira va adibalar matbuot, adabiy doiralarda keng ko'lamda faoliyat olib bora boshladilar. Zamonaviy adibalardan Simin Doneshvar, Mahshid Amirshohi, Guli Taraqqiy, Shahrinush Porsipur, G'azzola Alizoda, Munavvar Ravonipur, Xotira Hijoziy, Roziya Najjor, Samira Aslonpur, Fahima Rahimiy, Nasrin Somoniy va boshqalar ham ayollarning adabiy, madaniy fazosida qanot qoqdilar, she'riyat esa, ayollar siymosida o'zining yangi pallasiga kirib, takomillashdi. Eron ayollarining bilim darajasi va dunyoqarashi avvalgiga nisbatan ancha o'sdi. Qalam tebratuvchi ayollar safi Islom inqilobidan keyin ham, yanada kengaydi. Feministik ijtimoiy-adabiy harakat ta'siri ham o'zining pastu balandi bilan ayollar adabiyoti ko'lamida katta o'zgarishlar yasadi.

Inqilobdan so'ng, Eron zamonaviy she'riyatiga qator yangi shoirlar – Labat Volo Shayboniy, Quddus Qozinur, Mimanat Sodiqiy, Partu Nuriy Olo,

³¹ Muhammad Rizo Ruzbeh. She'ri dan zar duron-e maoser//Adabiyot-e maoser-e Iron.(she'r). Tehron., 1388. - B.461.

Safuroniyyori, Mino Dastg'oyib, Jilo Masoid, Hamoyuntoj Tabatobo'iy, Sipida Koshoniy, Sidiqa Vasmaqiy, Simintaxt Vohidiy, Fotima Roke'iy, Zuhra Noranjiy, Fotima Solorvand, Farishta Sori, Xotira Binafsha Hijoziy, Nasrin Jovariy va boshqalar kirib keldilar³².

Oxirigi o'n yilliklar davomida shoiralarning aksariyati avvalgi an'anaviy mavzulardan uzoqlashib o'z mustaqil dunyoqarashi va bayon qilish uslubi bilan she'riyatni yanada boyitdilar. Shoiralalar xotin-qizlarning ichki his-tuyg'ulari va mayillarini bayon etish, ular bilan she'r orqali suhbat qurish yo'nalishida ijod etdilar. Avvalgi o'n yilliklarda shoiralalar jurnal va nashriyotlar, madaniy-siyosiy jamiyatlar yordamida faoliyat olib borgan bo'lsalar, Islom inqilobidan keyingi yillarda, bir qancha ayollar yetakchi jamiyatlarda va hatto, kinomatografiya va rejisserlik sohasida ham erkaklar bilan teng faoliyat olib borib, o'z iqtidorlarini namoyish etmoqdalar.

Zamonaviy Eron she'riyatida shoiralarning o'rni deganda, ko'z oldimizga, avvalo, Furo'g' Farruxzod, Simin Behbehoniy, Parvin Etisomiy, Jole Isfahoniy, Jole Farahoniylar keladi. Chunki ularning hayoti va ijodiy faoliyati rus hamda o'zbek sharqshunos olimlari tomonidan har tomonlama yaxshi tadqiq etilgan. Ammo, zamonaviy Eron she'riyatida o'ziga xos o'rin tutgan, shoh tuzumi davridan, to hozirgi kunga qadar ijod qilib kelayotgan Tohira Safforzoda haqida rus va o'zbek tillarida yozilgan ma'lumotlarni juda kam uchratamiz.

Tohira Safforzoda 1937-yilda Sirjon shaharchasida tavallud topgan. U xorijiy tillarni o'rganish jarayonidagi bilimlari tufayli doktorlik darajasini olgan. Shoira tahsili davomida juda ko'p chet davlatlarda bo'lib, Yevropaning eng zamonaviy (modernizm) adabiyoti bilan yaqindan tanishgan. XX asrning 50-yillarida she'riyatga ilk qadam qo'ygan shoira ijodiy faoliyati asosan modern she'rlardan tashkil topgan.

Doimo o'z ustida ishlagan Safforzoda tezda she'r yozish qiyinchiliklarini engib o'tib, mashhur bo'lib ketgan. Uning har bir yangi she'rida zehn o'tkirligi, aniq va ravon til, chuqur fikr, yorqinlik bor. Shoira she'rlaridagi o'ziga xoslik,

³² O'sha yerda. -B.462.

ya'ni ko'pgina Eron adabiyotshunoslarning fikriga ko'ra, hurfikrlilik va insonlarga onalarcha murojaat, roviylar kabi naql etish, ijtimoiy masalalar va yolg'on va'dalar ustidan achchiq kulgu, so'z o'yinlari, jahon modernistik she'riyatidan ta'sirlanish, yaqqollik mavjud.

Shoiraning "Dil sadosi" (1971y.), "To'siq va qo'llar" (1972y.), "Beshinchi safar" (1978y.) nomli to'plamlaridagi she'rlar mana shunday ruhda yozilgan. Biroq, uning "Uyg'oqlik bilan ittifoqda" (1978y.) va "Tongdagi uchrashuv" (1988y.) nomli to'plamlaridagi she'rlarda shoir g'am-qayg'udan forig' bo'lgan, go'zallikni anglab yetgan va mazmunli she'rlar qa'riga g'arq bo'lganini ko'ramiz³³.

Hozirgi davrda Tohira Safforzoda she'rlarida 60-70 yillardagi bizga ma'lum bo'lgan qat'iylik ohanglari, ko'pgina she'rlarida esa badiiy shakl va mazmunning uyg'un birligi talabidan chekinib, shaklning nisbiy mustaqilligini mutlaqlashtiruvchi, unga badiiyatning bosh mezonini sifatida qarash, ya'ni formalizm, dabdaba berish ohanglari ufurmoqda³⁴.

Albatta, Safforzoda she'riyatidagi formalistik yo'nalish, nazariy doira "shakl – shakl uchun" shiori ostida bo'lib, mazmundan ko'pincha ayro tushsa-da, shoira o'z she'rlarida inson bilan bog'liqlik, ijtimoiy majburiyat qarama-qarshiliklarini yaxshi tushunib etadi va bu haqida o'zi shunday deydi: "Formalist anatomik xonada turgan inson skeleti va yashayotgan insonni harakatga keltirishda sobit turuvchidirki, bu esa bir puch tushunchadir"³⁵. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Safforzodaga G'arb she'riyati katta ta'sir o'tkazgan. Uning shaklga ayri-ayri e'tibor berish, badiiylik uslubiy-shakliy xususiyatlari (so'zni turfa kuylarda o'ynatish, uslubiy vositalardan foydalanish, vazn, qofiya va shu kabilarda voqe bo'lgan mahorat) o'zi o'z holicha badiiy qimmat hisoblanadi.

Zamonaviy Eron she'riyatidagi o'zgarishlar jarayoniga shoirlar ko'proq ta'sir etganlar. Eronda Nimo Yushij asos solgan "yangi she'r" yo'nalishi vujudga

³³ Muhammad Rizo Ruzbeh. Tohira Safforzoda//Adabiyot-e maosar-e Iron.(she'r). Tehron., 1388. - B.259.

³⁴ Majid Puyon, Afsona Ali Mandgoriy. Barrasi tahavvoli zabon va darune dar she'ri Tohira Safforzoda//Haftumin majmua binulmellali ustodoni zabon va adabiyoti forsiy. Chakideyi maqolat. Tehron., 1389. -B.82.

³⁵ Tohira Safforzoda. Harakat va diruz. Tehron., 1357. - B.122.

kelganida, Bonu Shams Kasmoy birinchilardan bo'lib bu yo'nalishda ijod eta boshlagan. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy Eron she'riyatining rivojlanishida modernizm yo'nalishida ijod etgan Simin Behbexoniy, Furo'g' Farruxzod hamda Tohira Safforzodalar shoirlalar orasida birinchi bo'lib zamonaviy she'riyatga xotin-qizlarning his-tuyg'ulari, ko'ngil sirlarini olib kirganlar. Shu jihatdan Tohira Safforzoda she'riyatini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Zero, Safforzoda ijodi zamonaviy Eron she'riyati rivoji va yo'nalishlarining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Universitetda tahsil olib, fors tili va adabiyoti, ingliz va arab tillarini yaxshi o'rgangan Tohira Safforzoda o'z yo'nalishida ko'proq hurfikrlilik jarayoni vakillari ta'siri ostida fikriy mazmun va asos jihatidan diniy ta'limotdan tashqari, din va siyosat, ijtimoiy masalalarga yangicha yondashadi. U har bir she'rida ayollarga xos bo'lgan hissiyotlarni kuylaydi. Shoira islomiy qadriyatlar asosida tarbiya topgan bo'lsa-da, uning ijodida o'ziga xos romantiklik, ijtimoiy masalalarni anglab etish natijasida yuzaga kelgan mustaqil g'oya va fikrlar mavjud.

Shunday qilib, zamonaviy Eron adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, shoiralarning aksariyati avvalgi an'anaviy mavzulardan uzoqlashib o'z mustaqil dunyoqarashi va bayon qilish uslubi bilan she'riyatni yanada boyitganlar. Shoirlalar xotin-qizlarning ichki his-tuyg'ulari va mayillarini bayon etish, ular bilan she'r orqali suhbat qurish yo'nalishida ijod etdilar. Xususan, Tohira Safforzoda o'zining ko'p yillik ijodiy faoliyati davomida hamma jabhalarda (shoh tuzumi, urush, siyosat, ijtimoiy vaziyat va h.k.) hurfikr bo'lib, falsafiy, asotir, modernistik fikrlarga qo'shilgan holda ilg'or mafkurani ilgari suradi. Islom inqilobidan keyingi yillarda esa shoira siyosiy va ma'nosizlik she'riy yo'nalishdan ilg'or qarashlar she'riyatiga, formalistik yo'nalishda ijod etmoqda. Shoira hurfikr shoirlar guruhiga mansub bo'lgan holda, so'zda murakkablik, jahon modernistik adabiyotidan ta'sirlanish, so'zlashuv tiliga moyillik, nazariyaga murojaat qilish, yangi shakllarga moyillik ruhida faoliyat olib bormoqda.

2-bob. Tohira Safforzoda she'riyati mavzular ko'lami va ramziy ma'no talqini

2.1. Tohira Safforzoda she'riyatida mavzular ko'lami va "Suvli mashina" she'ri tahlili

XX asr boshida Eron she'riyatda turg'unlik va tushkunlik davri bo'lib, bu she'riyat voqelikdan uzilib qolgan, unda o'rta asr mumtoz she'riyat vakillari ijodlaridagi uslublarga taqlid qilish ustunlik qilgan. Inqilob davri she'riyati Eron she'riyati tarixida katta burilish yasadi va yangi demokratik she'riyat asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari shu davrda vujudga keldi. Bu davr she'riyatida siyosiy pafos va mustamlakachilarga qarshi qaratilgan yo'nalishdagi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar tufayli ijtimoiy mavzudagi, xalq va mamlakatning haqiqiy hayotini tasvirlovchi she'riyat yuzaga kela boshladi.

Barchamizga ma'lumki, Eron Islom Respublikasida 1979-yilda "Islom inqilobi" bo'lib o'tdi. Eron Islom Inqilobidan keyin faqatgina mamlakatdagi siyosiy vaziyat emas, turmush tarzi, insonlar ongi ham o'zgardi. Mamlakatda qabul qilingan konstitutsiya aholiga ko'plab yengilliklar berdi. Shu jumladan ayollar haq-huquqlari ham oshirildi.

Inqilobdan keying davr she'riyat maydoniga ko'pgina iqtidorli shoirlar kirib keldi. Bu davr she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, bu she'riyatning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi, bu davrda ijod etgan shoirlarning har biri o'z dunyoqarashi, o'z yo'nalishi va hatto o'z darajasiga ega ekanligini shohidi bo'lamiz. Ularning she'rlarda ozodlik, inqilob kabi dolzarb mavzular, mamlakatdagi zo'ravonlik, nohaqlik, kambag'allik, amaldorlarning rahimsizligi, og'ir hayot kabi illatlar kuylangan va fosh etilgan.

Shoira Tohira Safforzoda zamonaviy fors she'riyatining an'anaviy shakllaridan o'zining ijtimoiy dunyoqarashini, voqelikka bo'lgan munosabatini, tanqidiy fikrini bayon qilishda foydalangan. Shoira Eron taraqqiyparvar she'riyatini o'zlarning ajoyib she'rlari bilan boyitdi.

Uning har bir yangi she'rida zehn o'tkirligi, aniq va ravon til, chuqur fikr, yorqinligi bor. Uning she'rlari sodda va ravon tilda yozilgan. Shoira Eron taraqqiyparvar she'riyatini o'zining ajoyib she'rlari bilan boyitdi.

Shoira she'rlari turli mavzularni o'z ichiga qamrab olgan. Shoira o'z she'rlarida o'sha davrning dolzarb masalalarini ifodalagan. Uning she'rlarida tushkunlik ohanglari mavjud. Safforzoda she'rlarida ikki ma'no – tushkunlik va yashirin ishonch bor.

Shoiraning ijodi 70-yillarda gulladi. Uning she'rlari voqelikka chuqur kirgan, falsafiy fikrlar talqin qilingan, obrazning boyligi, she'r ohangining jarangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Safforzoda jamiyatning yangilikka intiluvchi muxlislarining eng sevimli shoirlaridan biri hisoblanadi. Uning she'rlarida o'sha davrning dolzarb masalalari ifodalangan. Uning ijodining dastlabki jarayonidagi she'rlarida barcha mavzularda hurfikr ijod qildi, inqilobdan keyini yillardagi ijodiga nazar tashlasak uning deyarli barcha she'rlari mavhum, tushkunlik kayfiyati sezilib turadi. Buni shoiraning quyidagi she'rlarida yaqqol sezishimiz mumkin.

خبر سالها

ايوان خانهام

به وسعت قبرى است

از آفتاب و خاک

نشستهام به وسعت قبر

و منتظرم

که دست رهگذرى

ادامه‌ی دستانم باشد³⁶

Tarjimasi:

Ko'p yillar yangiligi

Mening uyim

Kengligi qabrdek go'yo

Quyoshdan va tuproqdan
Qabr kengligiga o'tiraman
Va men kutaman
O'tkinchining qo'li
Dostonlarimning davomidir

Shoira bu she'rida hayhotdek uyini qabr torligi darajasiga qiyoslamoqda. Bu bilan u hayotdan sovugan, umidini uzgan, hayot qulayliklaridan voz kechgan inson obrazini gavdalandirmoqda. Butun kurrayi-zaminni egallagan va erta tongdan to kun botguniga qadar butun borliqqa o'zining zarrin nurlarini ayamay sochuvchi quyosh va butun yer yuzini qoplagan tuproqdan kechgani, torgina qabrga o'tirishi aytib o'tadi. Ehtimol shoira bu jumlar orqali inson bu foniy dunyoda qanchadan-qancha boylik to'plamasin, qanchalik yaxshi sharoitda yashamasin baribir hammasi o'tkinchiligi, odam tuproqdan yaralgan va yana tuproqqa qaytishini aytmqchi bo'lgandir va u nimanidir kutmoqda. Shoira "O'tkinchining qo'li, Dostonlarimning davomidir" jumlasini orqali hayotida nimadir hatto eng yomon vaziyatda ham hanuz davom etishini bayon qilgan. Balki mana shu kutayotgan noma'lum narsa uni hayotga bo'lgan qiziqishini so'ndirmas, uni yashashga undar, yoki u o'z umri tugab, o'limini kutayotgandir. Va nihoyat so'nggi satrlar orqali ehtimol hayot bir zum bo'lsada to'xtamasligi, har doim davom etishini bayon etmoqchi bo'lgandir.

استعفا

در شهر قدم می‌زنم در شهر
قدم زدنی بی‌مقصد در پیش
قدم زدنی بی‌بازگشت در خیال
قبل از ساعت 4 بعد از ظهر
بعد از ساعت 8 صبح
وقت مال من است
من وقت

Tarjimasi:

Iste'fo

Shaharda yuraman shaharda
Be maqsad oldinga tashlayman qadam
Xayollarga qaytmaslik uchun tashlayman qadam
Tushlikdan keyingi soat 4 dan avval
Tonggi soat 8 dan keyin
Vaqt menikidir
Menda vaqt bor

Shoiraning bu she'ri ham yuqoridagi "Ko'p yillar yangiligi" she'ri kabi tushkunlik, mahzunlik kayfiyatida yozilgan. U bu she'r orqali hayotdan charchagan inson qiyofasini aks ettirishga uringan. Barcha intiladigan, hayot hamisha qaynoq bo'lgan, turli xil insonlarni o'zida jamlaydigan shaharda u sokin, asta yurib boradi. Balki uning o'tmishida dilni xira qiluvchi, unutib bo'lmaydigan qandaydir bir voqea sodir bo'lgandir. Inson o'z hayotida judayam orziqib kutgan, intilgan narsa sodir bo'lmay qolsa, tushkunlikka tushib qoladi. Ehtimol she'r qahramonining ham hayotida shunday voqea sodir bo'lgan bo'lsa ajab emas. She'rning "*Bemaqsad oldinga tashlayman qadam*" satrlari yuqoridagi so'zlarning isbotidir. "*Hayollarga qaytmaslik uchun tashlayman qadam*" Balki bu jumlar orqali shoira inson uchun eng ajoyib, nozik tuyg'u hisoblanmish sevgi dardiga muhtalo bo'lgani va ehtimol sevgan yoridan ayrilgani bois eski hotiralarga qaytmaslikni, o'tmishni yodga olmaslikni istayotgandir. Shoira kunduzgi vaqtni oziga tegishli ekanligini aytmoqda. Balki shu vaqtlardan keyin oila tashvishi bilan band bo'lar va o'zi, ijodi uchun vaqt ajrata olmas.

خویشاوند

تو از قبیلہی شعری
من خویشاوندت هستم
و پشتم از تو گرم است
و پشتم از تو گرم است
تویی که می‌دانی

که تیغ‌های موسمی باد
مرا به خیمه کشانیدند

Tarjimasi:

Qarindosh

Sen she'r qabilasidansan
Men sening qarindoshingman
Va orqam sendan issiq
Va orqam sendan issiq
Sen bilasanki
Shamolning mavsumli tig'i
Meni chodirga sudradi

She'ring "Sen *she'r qabilasidansan, Men sening qarindoshingman*" jumllarida shoira dunyoga kelgan har bir zot ya'ni insonlar bir-biriga begona emasligi, inson Odam Ato va Momo Havodan tarqalganligiga sha'ma qilmoqda. Darhaqiqat insoniyatning kelib chiqishi shu ikki zotga borib taqaladi. Insonlar dini, millati, yashash joyi, ijtimoiy kelib chiqishi, mansabidan qat'iy nazar bir-biri bilan qarindoshdirlar. Balki bu jumllar biror nochor, bechora insonga qarata aytilgandir. Shoira ozining unga qarindoshligini aytish orqali faqirni ozini boshqalardan past tutmasli, unda ham erkinliklar, huquqlar borligi, hayotda jamiyatda boshqa insonlar kabi uning ham o'z o'rnini borligiga sha'ma qilmoqda. "Va orqam sendan issiq" bu jumllarda afsuski jamiyat, ba'zi bir odamlar ularni ajratib turishlarini bayon etmoqda. So'nggi jumllarda ularni bir-biriga yaqinligini ular yashab turgan muhit, sharoit majburan ajratib yuborganligini aytib o'tmoqda. She'rni oqigan inson bu she'rda ikkinchi ma'no yashiringanligini sezishi mumkin, ya'ni *muhabbat* mavzusi. Inson yaralibdiki sevadi, seviladi. Lekin faqatgina eng omadlilargina birga bo'ladi. Ehtimol bu she'r oshiq va mashuqlarning ayrilig'i haqidadir. Oshiq va mashuqlar bir birini sevadi, lekin o'rtadagi tabaqaviy tafovut, mansab tufayli ular o'rtasida ayriliq paydo bo'lganligi, achinarlisi esa bu ayriliqqa ular majburan duch kelganligini shoira bayon etmoqchi bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Kunning ma'nosi

Kundan-da yorug'roq bu tunda

Ma'no daqiqalarining

Kun yaratuvchisi

Baytuta

Tonggacha

Bu ko'hna, bulg'angan dunyoning

Bepayon daryosida

Qalbidagi gard-g'uborni

Yuvguvchi

Ya'ni tunni bedor o'tkazuvchi

Pokiza etguvchi

Suvga o'xshaydi.

Bu she'r erkinlikka, hurlikka intilgan insonga qarata aytilgan, uni qo'llab-quvvatlagan. Ehtimolki, bu porloq kelajakka intilgan yosh avloddir. Uning orzulari bu tartibsiz, ozorlarga to'la dunyoning bag'rida paydo bo'ldi. Uning orzulari huddi yangi o'sib unayotgan yosh niholdek, dengizda oqayotgan tiniq, musaffo suvdek beg'ubor (*Pokiza etguvchi, Suvga o'xshaydi*).

(Davomi...)

Yosh to'la ko'zlar ila

Derazadan balandlar bog'iga,

Derazadan bir baland boqqa

Parvoz qil.

Sening jisming bu dengizning nihoyasida

Rangsiz bo'ladi.

“Inna anzalo” ning mustahkam qanotlarida

Ushbu eng mukarram tunning lutfi-la

Har qanday derazadan,

Har qanday tuynukdan,

Har qanday torlikdan

Beparvo,

Havotirlanmasdan

Uchib o'tgaysan,

Ko'tarilgaysan.

Ikilanmasdan,

Parvoz qil,

Parvoz qil!

Shoira garchi hayot achchiq qismatlarga to'la bo'lsada, hamisha harakat qilishga, doimo olg'a qadam bosishga, o'z orzulari sari intilishga chorlamoqda. Shoira yosh avlodni to'sqinlik qiluvchi xox inson, xox boshqa narsa bo'lsin hamisha harakatdan to'xtamaslikka, oxiri charchasada o'z maqsadiga erisha olishiga undamoqda. Yosh avlodni hech narsaga parvo etmasdan, hotirjam o'z yo'lida to'xtamasadan, dadil yurishga va ana shundagina maqsadga erisha olishini aytmoqda.

She'rni oqigan inson bu she'rda yosh avlodni ruhlantirish, rag'batlantirishga, uni o'z kelajagi uchun kurashishga undash ma'nosida yozilganiga guvoh bo'ladi. Kelajakni faqatgina yoshlar, yangi avlod o'zgartira olishini yaxshi biladi. Shuning uchun ularga g'amxo'rlik tarzida shu she'rni yozgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Darhaqiqat kelajak yoshlar qo'lida. Har bir millat o'z kelajagini qanday bo'lishini o'z bag'rida unib-o'sib, voyaga yetayotgan yoshlar orqali bilib olsa bo'ladi. Buni yaxshi bilgan shoira ham yurt kelajagi bo'lgan yosh avlodni hamisha yuksak marralarni ko'zlashi, uning ortida uni intizor kutguvchi insonlar borligi va ana shu insonlar uchun ham intilishi zarurligi, qiyinchiliklar, to'siqlarga bardosh bilan sabr qilishi, buyuk maqsadlar yo'lida hech qachon ikkilanmasdan dadil borishi kerakligini uqtiradi.

ماشين آبی

در يستانگاه

ايستاده ايم

و ایستاده دماوند
در پیش چشم ما
و پرسشی به این سپیدی خاکستر
پیوسته
می پیوندد
دیو و ددش همیشه ی حاضر
بند دگر کجاست
ما ایستاده ایم
در رگذا
ر دود
در خواری هنر
در ارجمندی جادو
و مغزهای مضطرب بیمار
اندام مار دوش را
تصویر می کنند
ما سالهاست منتظر مقصد هستیم
ما در کمین حرکت و ماشین
ما در تقاطع تاریخی خیابانها
در امتداد کورش
و در نهایت تخت جمشید
در این صف بلند زمان
با ما
کنار ما
شاید که اسب فریدون
اسب پولاد
از آسمان به زیر بیاید
ما را به مقصدی برساند
ماشین آبی شمراں
افسوس
آمدنی نیست

Tarjimasi:

Suvli mashina

Bekatda

Turibman

Va hargiz turibman

Ko‘z oldimizda

Va savol bilan oq kulga

Birlashgan

Birlashadi

She’rda zamonadan nolish va noumidlilik ruhi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir hayot va zamona qotib qolgani (“*Bekatda, Turibman, Va hargiz turibman*”), agarda hayotni yaxshilashga harakat qilinmasa u kul sochilgani misoli to‘zib ketishi, tartibsizlik ro‘y berishi(*Va savol bilan oq kulga*), bu pallada insonlar birgalikda, birdamlikda bo‘lishi, bir-birlariga qalqon bo‘lishi, ana shunda barcha qiyinchiliklarni yenga olishi mumkinligi(*Birlashgan, Birlashadi*) aytadi.

(Davomi...)

Dev va yirtqich hamisha tayyor

Boshqa bog‘lar qaerda

Biz turibmiz

Yo‘llar tutunli

San’at xorlikda

Arboblar joduda

Va bemorning hayollarini o‘g‘irlyaydi

Kecha tundagi tana zahrini

Tasvirlyaydilar

Yil davomida maqsad qilganmiz

Biz kichkinagina harakat va moshinadamiz

Tarix ko‘chasi chorrahasida

Kurashlar davomida

Hayotning har bir sohasidagi tushkunlik ajv urayotgani (*“yo‘llar tutunli, San‘at xorlikda, Arboblarning joduda”*), har bir insonning ro‘yobga chiqmayotgan orzu-umidlari, qilayotgan maqsadli say-harakatlari o‘z ifodasini bermayotgani (*“Yillar davomida maqsad qilganmiz, Tarix ko‘chasi chorrahasida, Kurashlar davomida”*) tasvirlamoqda

(Davomi...)

Va nihoyat Jamshid taxti
Baland ko‘tarilgan zamon keldi
Biz bilan
Oldimizda
Ehtimol Faridunning oti
Po‘lat oti
Osmondan yerga tushib
Bizni maqsad sari yetaklar
Sharman suvli mashinasida
Afsus
Kelmadi

Zamona o‘zgarsada, lekin oldinga intilish yo‘qligi, asta-sekin ular kutgan paytlar kelishini (*“Va nihoyat Jamshid taxti baland ko‘tarilgan zamon keldi, biz bilan, oldimizda, Lekin ular ham uyquda...”*), kelajakka qandaydir bir ishonchni paydo bo‘lishi, ularning orzulari ro‘yobga chiqishi mumkin bo‘lgan, intiqib kutilgan onlar yetib kelishini, lekin uni ham zavol ketishi, ozrulari ro‘yobga aylanishi, (*“Ehtimol, Faridunning chopqir oti, po‘lat oti osmondan erga tushib, Shamronning suvli mashinasi bilan birgalikda bizni maqsad sari etaklar, Afsus, Kelmadi”*) haqida qayg‘uradi.

Tohira Safforzodaning *“Suvli mashina”* she‘ri ham formal uslubda yozilgan bo‘lib, undagi asosiy e‘tibor badiiy shaklga qaratilgan. Shoir bu she‘rida yangilik yaratish va tashqi shaklga ahamiyat bergan bo‘lsa-da, ayni chog‘da bu she‘rda ijtimoiy mazmun mavjud.

Shoira bu she'ri orqali o'zi yashab turgan jamiyatning eski tuzumdaligi, u hozirgi odamlar yashab turgan zamonga mos kelmasligi, barcha narsa hatto insonlar ham eskilik sarqitiga o'ralashib qolgani, bundan chiqib ketishga qilinayotgan harakatlar besamarligini, agarda insonlar birlashib, bir butun bo'lib bu jaholatga qarshi kurashmasalar, hayot tarzi yana ham yomon ahvolga kelib qolishi, qachonlardir barchasi ular istagandek bo'lishiga umid qilishlari, lekin shunda ham nimadir sodir bo'lib bu baxtni ularga ravo ko'rmasligi mumkinligini yoritmoqda. Darhaqiqat bu she'r orqali o'z jamiyatining qandayin ahvolga kelib qolganligini, va bu undagi insonlarga, ularning hayot tarzi, fikrlashiga, hattoki qilayotgan harakakatlariga ham qay darajada o'zining salbiy ta'sirini korsatayotganligini yaqqol namoyon etishga uringan.

Shoira "Suvli mashina" she'rida ibhom, tashbeh, talmeh, tamsil kabi she'riy san'atlaridan unumli foydalangan. Chunonchi, so'zda murakkablik, ibhom san'atiga moyillik, juz'iyotchilik va xolisona qarash, noumidlik ruhi, shiorga o'xshash bayon tarzi, simvolizm shoirani hurfikr shoirlar guruhiga mansub ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

2.2. Shoira she'rlarida ramziy obrazlarning talqin etilishi

Ramz(arab. – ishora qilmoq) voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Badiiy adabiyotda ramz foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo'lib, aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamlarning ko'z oldida yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi³⁷.

Bugungi kun she'riyatining an'anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar eng muhimi, betakror serohang, serma'no ifodalar bilan o'quvchini o'ylantiradi.

She'riyatda shoir oniy, bir lahzali kechinmalar orqali yuzaga keladigan butun g'oyaviy-estetik mazmunni obrazga singdirishi, ruhiy holat, his-tuyg'ular tadrijini namoyon eta olishi kerak.

Ramziylik she'riyatning o'quvchini mushohadaga undaydigan, yashiringan sir-u asrorlarni toppish talablarini ham qo'yadi. Bugungi kun she'riyatidagi metaforik, ko'chimning turlari: ramz, istiora va majoj kabi turlari keng tarqalmoqda. Shoira Safforzodaning ham ramziylik, ramziy obrazlar talqin qilingan bir qancha she'rlari bor. Shoiraning bu she'rlarida kesatish, so'z o'yinlari, asl haqiqatni mardlarcha ochib bera olish kabi usullardan foydalangan. Quyida esa mana shu she'rlardan namunalar ko'rib chiqamiz.

مه در لندن

مه در لندن بومیست

غربت در من

در زمستان توریست

اول مه را می بیند

و بعد

باغ وحش

Tarjimasi:

May oyida Londonda

May oyida Londonda may isi

³⁷ Adabiyot nazariyasi. 1-jild. Toshkent, 1978. B-59

Men musofirchilikdaman

Qish mavsumida sayyoh avval mayni ko‘radi

Va keyinroq

Hayvonot bog‘i

Shoiraning bu she‘rini o‘qiganda, o‘quvchi yozuvchi o‘z vatanidan tashqarida ekan degan xulosaga keladi. Chunki shoiraning vatani Eron, lekin she‘rda Buyuk Britaniyaning poytaxti hisoblangan London haqida so‘z yuritgan. Lekin bu xulosa to‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin, chunki shoira tahsil olish uchun juda ko‘p davlatlarda bo‘lgan va asosan o‘sha yerlarda zamonaviy adabiyot bilan tanishgan. Fikrimizni davom ettiradigan bo‘lsak, ehtimol shoira ta‘lim olish uchun, yetuk shoira bo‘lish uchun chet davlatlarda musofirchilikni boshidan o‘tkazgani, undagi qiyinchiliklarni, shuningdek ona vatan, oila, do‘st-u yaqinlar sog‘inchini mana shu she‘ri orqali bayon etishga uringandir. She‘rning *“Men musofirchilikdaman”* jumllarini o‘qiganda shoira o‘zining qaerdaligini emas, balki unda yashiringan dard, qiyinchiliklarni ham bayon etishga uringan. Bu jumllar orqali shoiraning mahzunligi yaqqol seziladi. Tanganing ikki tomoni bo‘lgani singari she‘rda ikkinchi ma‘no ya‘ni ramziy ma‘noni, ramziy obrazni topishimiz mumkin. Ya‘ni unda may(sharob)ni sevuvchi mayparast inson obrazi tasvirlangan. Mayni xush ko‘ruvchi inson qayerga bormasin albatta o‘sha joyda ham may iste‘mol qiladi. Keyin esa may ta‘sirida o‘zining eski xotiralarini yodga ola boshlaydi, o‘zini darbadar his qiladi. Ichkilikka shunchalik o‘rganib qolganidan uning ko‘ziga hamma narsa may bo‘lib ko‘rinadi. Qayerda bo‘lmasin ko‘zi eng avval sharobni ko‘radi. Uni iste‘mol qilganidan keyin esa tabiiyki, o‘zini boshqacha his qiladi. *“Hayvonot bog‘i”* jumllarida shoira aynan shu haqida aytmoqchi bo‘lgan. Maydan sarxush bo‘lgan inson o‘zini huddi she‘r misoli tutadi, go‘yoki undan kuchli, undan yaxshiy yo‘qdek. Lekin aslini olib qaralganda esa mayparast inson sarxush bo‘lganida avval qo‘ydek yuvosh, mayning ozgina ta‘siri o‘ta boshlaganda tulkidek ayyor va nihoyat may butkul ta‘sir etib, o‘z domiga olganda esa o‘zini sherdek tasavvur etadi. Shoira may obrizi orqali, uni ichgan inson, uning qanday ahvolga tushib qolishi, oxir-oqibatda nimalar sodir bo‘lishini tasvirlashga uringan.

شیرها که با توپ نقره بازی می‌کنند

هر شب مرا بیدار می‌کنند

شیرهای سنگی جلو عمارت را می‌گویم

من گذرگاه توپ‌های سنگی هستم

توپ‌هاشان رنگ نقره دارد

و نفس‌هاشان هُرم غریب

من از پنجه

Tarjimasi:

She'rlar kumush to'p bilan o'ynaydilar

Har kecha meni uyg'otadi

Uyning old qismini toshli plitalar deyman

Men toshlarni kesib o'taman

Ularning to'plari kumush rangga ega

Va ularning nafasi yaxshi piramidadir

Men panjadanman.

Ayol kishi uchun oila hamisha birinchi o'rinda. Olloh tomonidan beriladigan farzand deb atalmish buyuk ne'mat har bir oilaning quvonchi baxti hisoblanadi. Bu she'r orqali shoira ehtimol farzandlari haqida aytmoqchi bo'lgandir. Chaqaloqlarning tunda uxlamasligi, turli injiqliklar qilishi, onasini yig'lab uyg'otishi (*Har kecha meni uyg'otadi*)ni, uydagi tugamas ishlar (*Uyning old qismini toshli plitalar deyman*), farzandi orom olganda o'zi ham biroz bo'lsada tin olish o'rniga uy yumushlarini bajarishi, kir yuvishi, ovqat tayyorlashi, farzandlari uchun zarur bo'ladigan narslarni ular uyg'onganiga qadar tayyorlab qo'yishini (*Men toshlarni kesib o'taman*), ular uyg'onganida ona go'yoki hayotga qaytgandek bo'lishi (*Ularning to'plari kumush rangga ega*), ular bilan hayot go'zal, maftunkor bo'lishi, hayotini ularsiz tasavvur eta olmasligi, ular hayotning onaga bergan eng oliy tuhfasini ekanligi, ularning yonidagina o'zini tinch, xotirjam, baxtiyor sezishini (*Va ularning nafasi yaxshi piramidadir*), va nihoyat esa ona o'zini

dunyodagi eng baxtiyor inson ya'ni ona ekanligini, uning farzandlari borligini tasvirlamoqda.

She'ni boshqa tomondan tahlil qiladigan bo'lsak, undagi ifodalangan ramziy obrazga, uning nima ekanligiga ahamiyat qaratishimiz lozim. Yuqorida aytib o'tilganidek, shoira xorijda tahsil olgan. Shu davr mobaynida uning fiklashi, dunyoqarashi ham o'zgargan. O'zining ona vataniga qaytgach esa uning chet elda o'zgargan dunyoqarashi u yashab turgan jamiyatga, undagi insonlarga to'g'ri kelmagan bo'lishi mumkin. Uning fikrlashiga qarshi chiquvchilar hamisha uchrab turganligini "*Har kecha meni uyg'otadi*" jumllalaridan anglash mumkin. Ularning hurlikka qarshi fikrlaridan, erkin ijod qilishga qiladigan qarshiliklaridan, insonlarni o'z holicha fikr yuritishga qo'ymaydigan tosiqlaridan shoira hafa bo'lmaydi, aksincha ularni ham to'g'ri tushunadi. Chunki hamma ham bir xil fikrlay olmaydi, bir inson ko'rgan narsani huddi uningdek hech kim ko'ra olmaydi(*Uyning old qismini toshli plitalar deyman*). Yozuvchi har qanday to'siqlarga bardosh beradi, ulaning gap-so'zlariga, unga nisbatan bildiradigan fikrlariga e'tibor bermasdan o'zi tanlagan yo'lda sobit qadam tashlashda davom etadi, ijod qilishdan to'xtamaydi. U hamisha haqiqat, tenglik, adolat uchun kurashadi(*Men toshlarni kesib o'taman*). Jamiyatlar turlicha bo'lgani singari odamlar ham turlichadir. Biror masala yuzasidan fikr bildirish yuzasidan ular guruh-guruh bo'lishadi. Balki mana shunday guruhdagi insonlar shoiraga qarshi chiqishgandir(*Ularning to'plari kumush rangga ega*). Yuqorida aytilganidek shoira bunday insonlardan ularning fikrlaridan hafa, norozi bo'lmaydi, aksincha ularning tanqidiy fikrlaridan o'ziga kerakli xulosani chiqaradi, ularning fikrlaridan ilhom oladi, yana ko'proq ijod qilishga qattiq bel bog'laydi, ularning qarshiliklari, tosqinlari shoirani kurashishga, doimo olg'a qadam bosishga undaydi. Ehtimolki shoira ularga rahmat ham aytar(*Va ularning nafasi yaxshi piramidadir*). Garchi shoira ma'lum vaqt chet elda yashagan, chet el ta'limini olgan bo'lsada ona vatniga qaytib kelgan, o'zligini unutmagan. U dunyoning qaerida bo'lmasin o'z millati, dini, yashash joyidan faxrlangan va hamisha buni barilla ayta olgan(*Men panjadanman*).

Safforzoda ijodiga mansub bu she'rida shoira ramziy obraz sifatida adolatni tasvirlashga uringan. Uning “*Men toshlarni kesib o'taman*” degan jumalari orqali u har qanday holatda ham, hech kimning fikriga ahamiyat bermasdan, barcha to'siqlarga qarshi borib bo'lsada adolat uchun kurashadi, uni ro'yobga chiqarishga harakat qiladi. She'rning sarlavhasi ham bejizga bunday nomlanmagan, “*Sherlar kumush to'p o'ynaydilar*” ya'ni adolatga, haqiqatga qarshi bo'lgan insonlar o'zlarini hamisha haq va ular tanlagan yo'lni esa to'g'ri deb o'ylaydilar.

سبزه

آن سبزه
کز ضخامت سیمان گذشت
و قشر سنگی را
در کوچهی شبانهی بابل
تا منتهای پردهی بودن
شکافت
آن سبزه زندگانی

Tarjimasi:

Qorachiq

U qorachiq
Va tosh massasini
Bobilning ko'chasining tunlarida
Pardaning oxiriga qadar
Fosh qiladi
Hayot qorachig'i

She'rning sarlavhasi “Qorachiq” deb nomlangan bo'lsada, aslida unda adolat, erkinlik kabi ramziy obrazlar yashiringan. Shoira bu she'ri orqali adolatni talqin qilgan. E'tibor beradigan bo'lsak, adolatni insonning eng nozik, kerakli, muhim a'zosi hisoblangan **qorachiq**ga qiyoslamoqda va yana alohida ta'kidlamoqda (*U qorachiq*). Adolat shunday kuchga egaki, u hatto toshdan ham og'ir. Uning og'irligini esa afsuski hamma ham ko'tara olmaydi. Lekin uni bir marta ko'targan

inson qanchalik og‘ir bo‘lmasin uni qo‘ldan qo‘ymaydi. Shoir ham she‘rda uni toshga qiyoslaydi (*Va tosh massasini*). Oy-yulduzlar faqat tunda nur sochgani bilan, kunduzi nur sochuvchi quyoshga qiyoslanadi. Erkinlik, adolat, hurfiylik ham hamma joyda bir hil emas, ya‘ni ular ham huddi oy-quyoshga o‘xshab ma‘lum vaqtda, ma‘lum joyda yuzaga chiqadi. (*Bobilning ko‘chasining tunlarida*). Odamzod yashar ekan to umrining so‘ngiga qadar haqiqat, tenglik uchun kurashadi (*Pardaning oxiriga qadar*). Va uning urinishlari, sayi-harakatlari natijasi o‘laroq u o‘z maqsadiga erishadi, adolat, tenglik, erkinlik tantana qiladi (*Fosh qiladi*). Oxiri u boshqa insonlarni ham shunga undaydi, ularning haqiqat hamisha qaror topishiga ishontiradi. Garchi mashaqqatli bo‘lsa-da buni uddasidan chiqarib olish mumkinligini barchaga isbotlaydi. Chunki bu haqiqat, adolat, ya‘ni hayot haqiqati, hayot adolatidir.

Bu she‘r orqali shoir insonlarni haqlikka, kurashishga, o‘z maqsadlari yo‘lida ildam qadam tashlab borishga chaqiradi. To‘g‘ri maqsadga erishish oson bo‘lmaydi. Uning ham o‘ziga yarasha qiyinchiliklari, to‘siqlari borligi, uning yuki og‘ir bo‘lishini ham aytib o‘tadi. Lekin har qanday holatda bo‘lmasin baribir haqiqat baribir yuzaga chiqadi, adolat hamisha qaror topadi. Zero bu hayot haqiqati, hayot adolati.

در سفره

در سفره

مرگ آمده است

صدای آمدن دندان بر لقمه

همراه با صدای گولہست

که پشت همین میدان

در ابتدای همین کوچه

بر سینه‌ی جوان تو

Tarjimasi:

Dasturxonda

Dasturxonda

O‘lim keladi

Kelgan tishning ovozi og‘izga tushadi

Doira ovoziga hamroh

O‘sha maydon orqasi

Bu ko‘chaning boshida

Sening yosh ko‘ksingda

Inson tug‘iladi, hayot kechiradi va umri tugab vafot etadi. O‘lim haq, undan hech kim qochib qutulgan emas. Yuqoridagi she’rda inson hayotining so‘nggi palasi ya’ni o‘lim ifodalangan. U hech vaqt so‘ramasdan, o‘zi istagan vaqtda keladi (*O‘lim keladi*). Vafot etgan kishining vafoti haqida qarindosh-urug‘, yor-u birodarlarining qulog‘iga asta sekin yetib boradi (*Kelgan tishning ovozi og‘izga tushadi*). Barcha birgalikda uni danf etadi.

Bu she’r orqali shoira o‘lim haqida so‘z yuritadi. Inson vafotidan keyin hamuni nomi abadiy insonlar qalbida muhrlanib qoladi, qachonki undan yaxshi, ezgu amallar qolsa. Vafot etgan kishi yodga olinganda uning martabasi, kelib chiqishi, qanday sharoitda yashagni emas, balki uning bajargan yaxshi-yomo ishlari birinchi navbatda tilga olinadi. Uning insonlarga qilgan yaxshiligi, bergan yordami doimo uning farzandlariga, yaqinlariga hamroh bo‘ladi. Hoh yosh bo‘lsin, hoh kichik uning qilgan yaxshi amallari tufayli uni hurmat qilishadi, yaxshi xotiralar bilan eslashadi. She’r sarlavhasi ostida yaxshilik, inson bajaradigan yaxshi-yomon amallar obrazlari yashiringan. Ovqatlanish uchun butun oila a’zolari dasturxon boshida jam bo‘lishgani singari, inson amalga oshirgan amallar ham hammani bir joyga to‘playdi, hammani birdamlikka, birodarlikka chorlaydi. Yaxshilik qilish, insonlarga yordam berish, ularni xushnud qilish zarur. Zero yaxshilikni har kim, har kuni qilmog‘i darkor.

سپیدی صدای سیاه

صدای ناب اذان می آید

صدای خوب بلال

صدای آن حبشی

آن سپاه
چون صاعقه
بر بام شرک و جهل فرو می‌بارد

Tarjimasi:

Qoraning oq ovozi

Azonning sof ovozi keladi

Bilolning yaxshi ovozi

O'sha xabashning ovozi

O'sha qora

Chunki chaqmoq

Jaholatning soyasini tozalaydi

Shoiraning bu she'ri diniy mavzuda, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) yashagan davrda azon chaqirgan Bilol haqidadir. Bilol ibn Raboh to'liq ismi Abu Abdullo Bilol ibn Raboh al-Habashiy – islom tarixidagi birinchi muazzin. Asli habashistonlik, Makkada islomni birinchilardan bo'lib qabul qilgan qullardan. Xojasi Umayya ibn Halaf islomdan voz kechishni talab etib, Bilolga toqat qilib bo'lmas azoblarni bergan. Abu Bakr Siddiq (r.a) Bilolni Umayyadan sotib olib, ozodlikka chiqargan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) bilan Madinga hijrat qilgan. 622-yil Madinada ommaviy azon aytish joriy etilganda u birinchi bo'lib baland ovozi bilan musulmonlarni namozga chorlagan va bir necha yil davomida Muhammad (s.a.v)ga muazzinlik qilgan. Payg'ambar (s.a.v) vafotidan so'ng Shomda yashagan va hazrat Husayn iltimosiga ko'ra Madinaga kelganida bir bor bomdod namozi azonini aytgan va o'sha yerda jon bergan, degan rivoyat bor.

Yuqoridagi she'rda garchi qora, qul bo'lsada o'zining shirali, kuchli, o'tkir va g'amnok ovozi tasvirlangan. Azon aytayotgan paytda uning sof ovozi barchani harakatdan to'xtashga majbur qilar edi. Odamlar nafaqat namoz vaqti bo'lgani uchun balki, Bilolning shirali ovoziga maftun bo'lganlaridan, uni eshitishga mushtiq bo'lganlaridan ham jim qolar edilar. Garchi u habash, qora qul bo'lsada, o'sha qoraning ovozi go'yoki chaqmoqdek edi. Zulmatni yoritgandek edi go'yo.

She'r sarlavhasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "**Qoraning oq ovozi**". Darhaqiqat garchi u qora bo'lsada, uning ovozinig sofligi, shiraliligi go'yo shaffofdek tiniq, qordek oq edi. Bu she'rda shoira Bilol ovozi qanchalik darajada chiroylik tasvirlaganini ko'rish mumkin. Shoira o'quvchiga bu ovozning nafaqat buyukligi balki uning qandayin hususiyatga ega ekanligini ham ochib berishga harakat qilgan. Sherdagi "*Oq ovoz*" jumlasida yashiringan ramziy ma'noni juda mahorat bilan yoritib bergan.

سفر عاشقانه

سُور صبح مرا دید
که گیسوان درهم و خیسیم را
از پلکان رود می آوردم
سپیده ناپیدا بود
دوباره آمده ام
از انتهای درّه ی سیب
و پلکان رفته ی ر

Tarjimasi:

Romantik sayohat

Tonngi tozalovchi meni ko'rdi
Nam va o'rilgan qattiq sochimni
Daryo zinasidan olib kelaman
Oq noma'lum edi
Ikkinchi marta keldim
Olma vodiysi oxiridan
Va zinapoyalar yo'q bo'lib ketdi

Bu she'r shoira o'zining gunoh ish qilib qo'ygani va keyin esa bandaning qilgan har bir ishini Olloh ko'rib turgani yodiga tushib qattiq iztirob chekkanini (*Tonggi tozalovchi meni ko'rdi*), uning qilgan har bir yaxshi-yomon amali uchun sarhisob qilinishini, garchi bu ishlarni hammadan berkitsada lekin Ollohdan berkita olmasligini (*Nam va o'rilgan qattiq sochimni*), uning qilgan guhohlari, ayblari

uchun u qanday jazo berilishini noma'lumligi (*Oq noma'lum edi*), inson xato qilishga moyil bo'lishi (*Ikkinchi marta keldim*), lekin Olloh kechirimliligi, kech bo'lsa ham qilgan gunohlari uchun tavba qilsa, Ollohdan gunohlari uchun avf so'rasa, chin dildan qilgan ibodati tufayli barcha qilgan gunohlarini Olloh kechirishini (*Olma vodiysi oxiridan, Va zinapoyalar yo'q bo'lib ketdi*) ifodalagan.

Darhaqiqat Olloh kechirimli. Shuningdek kechirimli bandalarini yaxshi ko'radi. Bandasi qilgan aybi uchun o'ldirgan o'tinib ofiyat so'rasa, unga tavbatazarru qilsa albatta kechiradi. Shoiraning bu she'rida gunoh ramziy obraz qilib olingan.

Intizorlik

Hamisha intizoringman

Garchi jimva karaxt bo'lsam ham

Hamisha intizoringman.

Chunki men

Hamisha yo'ldaman,

Shoira bu she'rida nimanidiri intiq bo'lib kutganini tasvirlagan. U jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurasha olmasada, yovuz kuchlarni yenga olmasda hamisha qachonlardir u kutgan kunlar kelishini kutadi (*Garchi jim va karaxt bo'lsam ham*). Doimo kutadi. Chunki u ishonadi. Doimo ishonch bilan yashaydi. Qachonlardir uning orzusi amalga oshishiga ishonadi. (*Hamisha yo'ldaman, Hamisha harakatda*).

(davomi...)

Hamisha harakatda,

Hamisha yuzma-yuz.

Sen oydek, yulduzdek,

Quyoshdek hamisha borsan.

To'lin oydan porlaysan,

Va Ka'badan etib kelasan.

Kufa esa Zulfiqorni echib,

Zulmatni yorib
Sen ilk bor keladigan Tehrondir.
Hamisha intizoringman,
Ey bashorat qilingan adolat!
Bu ko'cha,
Bu hiyobon,
Bu bog'da
Seni kutishlardan bir chiziq qolgan.
Sen ko'rguvchisan
Va ham bilguvchi.
Ayon bo'l,
Ayon bo'lkim, intizoringman,
Intizoringman.

Uning kutgan narsasi go'yo oy-u yulduzdek, charog'on quyoshdek hamisha porlaydi, doimo ular kabi mavjud, u hamisha so'nmas olovdek yonib, nur sochib turadi(*Sen oydek, yulduzdek, Quyoshdek hamisha borsan*), U qaerda adolatsizlik, zulm, nohaqlik bo'lsa albatta o'sha joyda o'zining kuchini ko'rsatadi, u zulmatni yorituvchi nurdir(*Va Ka'badan yetib kelasa, Zulmatni yoritib*). U hamisha kutadi. Uni nafaqat muallif balki har bir inson kutadi. Hark o'cha, hiyobon, har xonadonda uni kutuvchilar bor. Uni kutishlaridan belgi bor. U uni kutuvchilarni, uni kutuvchi ishoralarni biladi.

Shoira intizor, mushtiq bo'lib kutgan narsasi bu ADOLAT. Adolatni shundayin umidvorlik bilan kutadiki uni hatto nur sochuvchi quyoshga, tunda osmonni yorituvchi oy-yulduzlarga qiyoslaydi. Adolatni dunyoda yagona bo'gan shunday jismlarga tenglashtiradi. Go'yoki uning kelishi avvaldan bashorat qilinganidek uning kelishiga ishonadi, kutadi. Har joyda, har kimda uning kutishlarining belgisi bor. Oxir-oqibat adolatning yuzaga chiqishini, o'zini namoyon qilishini aytadi(*Ayon bo'l, Ayon bo'lkim intizoringman*).

She'rd a adolat ramziy obraz sifatida talqin qilingan. Va shoira uni qandayligi-
yu qay darajada ekanligini chiroyli jumlar orqali ifoda etgan. She'ring asl
mohiyati nimada ekanligini yuksak mahorat bilan ochib bera olgan.

Xulosa

Zamonaviy Eron shoirasi Tohira Safforzoda she'riyatini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga keldik:

- Tohira Safforzodaning “she’r-e no‘v” uslubida yozilgan she’rlarida inqilobiy kayfiyat, o’sha davrdagi qiyinchilik asoratlari, alam va iztiroblar, bosim ostidagi ezilishlar, ezgulikka undovchi chaqiriqlar o‘quvchiga tushunarli va yorqin tarzda ochib berilgan. Shoira ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning ko‘p she’rlarida tushkunlik, norozilik alomatlari ko‘p uchrashi, quvnoq, hajviy uslubda yozilgan she’rlari yo‘qligiga guvoh bo‘lamiz.
- Shoira she’rlarida falsafiy fikrlarni talqin qilgan. Deyarli barcha she’rlarida mahzunlik kuzatiladi. Shoira “Ko‘p yillar yangiligi” she’rida u dunyo lazzatlaridan voz kechgan inson qiyofasini tasvirlagan. “Iste’fo” she’rida esa ona obrazini gavdalantirgan. Ya’ni onaning hayot tarzi, kun tartibi ifodalangan. Uning turli mavzuda yozilgan she’rlarida qanday ma’nolar borligini chuqur anglab yetish uchun she’rlarni qayta-qayta o‘qishga undaydi.
- Shuningdek shoira she’rlari ramziy obrazlar juda ko‘p uchraydi. Uning ko‘p she’rlarida ramziy bayon sifatida biron-bir obraz talqin qilinadi. Lekin shoira berilayotgan ramziy obrazni to‘g‘ridan-to‘g‘ri oshkor qilmaydi, o‘quvchini biroz o‘ylantirishga majbur qiladi. She’rda yashiringan obrazni topish, uning mohiyatini anglash uchun shoira ijodiga chuqurroq yondashish zarur. Uning she’rlari nafaqat obrazlarga boyligi balki o‘zgacha sirliligi bilan ham kishi e’tiborini tortadi.

Shoira ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning har bir she’rini o‘zgacha dard bilan yozilganini ko‘ramiz. Barchamizga ma’lumki, Eron inqilobidan keyin Erondagi hayot, yashash tarzi, ijtimoiy hayot, insonlar ongi, fikrlashlari o‘zgara boshladi. Asta-sekinlik bilan jamiyatda ayollar maqvei ham yuksala bordi. Lekin bu yuksalishga qarshi bo‘ladigan eski tuzum tarafdorlari ham yo‘q emas edi. Shoira chet elda taxsil oldi va juda ham ko‘p chet davlatlarga sayohat qildi. Garchi u yoshligidan diniy muhitda islomiy tarbiya ko‘rgan bo‘lsada, uning dunyoqarashi

o‘zgacha edi. Uning she’rlarida zamonadan nolish, eskilik sarqitlaridan voz kechish, yangi hayotga qadam qoyish vaqti kelganini anglatish va bunga yon-atrofidagi insonlarni ishonirish, ularni yangilik sari chorlovchi fikrlarni uchratish mumkin. Bu fikrlar ayniqsa shoironing “Kunning ma’nosi” she’rida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu she’r kelajak egalari bo‘lgan yosh avlodga qarata aytilgan. Bu she’r orqali shoira yoshlarni kelajak sari olg‘a boshlaydi

Shoironing ba’zi she’rlarida zamonadan nolish, noumidlik kayfiyatlari sezilib turadi. U “Suvli mashina” she’rini o‘qiganda bu holatni qay darajada mahorat bilan ifodalaganini guvohi bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Zamonaviy Eron she’riyatiga shoiralalar ko‘proq ta’sir etganlar. Shu shoiralalar orasida Tohira Safforzoda birinchilardan bo‘lib she’riyatga xotin-qizlarning his-tuyg‘ulari, kongil kechinmalari va sirlarini olib kirgan va buni yaqqol namoyish qilgan. Shu jihatdan ham uning ijodini o‘rganish katta hamiyat kasb etadi.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, shoira ijodiga mansub bo‘lgan she’rlaning deyarli barchasida tushkunlik, g‘amginlik holatida yozilgan. Va mana shu jihat uni boshqa shoiralardan ajratib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar ro'yxati

Prezident asarlari

1. Karimov.I.A. Tinchlik va Xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. –Toshkent.: 2004.
2. Karimov.I.A. YUksak ma'naviyat engilmas kuch. –Toshkent.: 2008.

O'zbek tilidagi adabiyotlar

3. Muhammad Rizo Ruzbeh. Hozirgi zamon Eron adabiyoti. –Toshkent.: 2012.
4. Muhammad Ja'far. Qirq chiroq. –Toshkent.: 2012.
5. To'ychieva.G.U. Eron poeziyasida “yangi she'r” adabiy oqimi takomili masalalari. Sino. 2007. №4.

Rus tilidagi adabiyotlar

6. История персидский литературы XIX-XX веков. –Москва.: 1999. –118-121.C
7. Иванов М.С. Влияние русской революции. 1905 г на иранскую революцию 1905-1911гг. Ученые записки ЛГУ. Вып. 1. 1949. –.344.
8. Кляшторина В.Б. Новая поэзия в Иране. –М.: 1975.

Lug'atlar

9. Персидско-русский словарь в 2-х томах, под редакцией Ю.А.Рубинчика, 3- издание. I-том. –Москва: Русский язык, 1985.
10. Персидско-русский словарь в 2-х томах, под редакцией Ю.А.Рубинчика, 3- издание. II-том. –Москва: Русский язык, 1985.

Fors tilidagi adabiyotlar

11. عبدالاعلی دستغایب. بررسی اجملی در برا یشعر نو فارسی . . پیام نوین. 1960.

12. عبدالرضا سبزی سبک شعر نو، تهران، 1971.
13. رضا براخانی، شعر امروز، تهران، 1969.
14. پرویز ناتل خانلری، مجارای شعر، تهران، 1971: پست و بلند شعر نو، تهران، 1962.
15. رعدی غلامعلی آدرحشی، شعر معاصر ایران، تهران، 1968.
16. محمد حقوقی، شعر نو از آغاز تا امروز، تهران، 1972.
17. شاریک بهمان، نیما و شعر در پاسی، تهران، 1971.
18. شاریک بهمان، نیما و شعر در پاسی، تهران، 1971.
19. زرینکوب عبلاحسین، شعر بنقاب شعر بدروغ، تهران، 1967.
20. دکتر محمد رضا روزبه. ادبیات معاصر ایران. شعر. چاپ چهارم. تهران. 2009.

Internet saytlari

21. <mailto:Info@persianbook.net>
22. <http://yasaman-bahar.persianblog.ir/post>
23. <http://fa.wikiquote.org/wik>
24. <http://thesis.ui.ac.ir/abstracts/ltr/sixteen182.htm>
25. www.google.uz
26. www.wikipediya.uz

